

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

«BMIni himoya uchun DAKga
tavsiya qilaman» fakultet
dekani _____ T.Sharipov
«___» _____ 2013 yil

«Kasb-hunar ta‘limi» kafedrası
V 5140900 – «Kasbiy ta‘lim (ijtimoiy-iqtisodiy soha)»
ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY
FANLARNI O‘QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI**

Bajardi: KTI – 109 guruh talabasi
Ilmiy rahbar: dotsent

Gapparova M.Q.
Xaliqova L. N.

Malakaviy ish muhokama qilindi
va himoyaga ruxsat berildi:
kafedra mudiri, i.f.d., professor
_____ M.M.Muhammedov
«___» _____ 2013 yil

Samarqand – 2013

MUNDARIJA:

Kirish.....	3
I BOB. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llashga zaruratning to'g'ilishi va ularning ilmiy-nazariy asosi	
1.1. Iqtisodiy fanlarni vujudga kelishi va iqtisodiy fanlarni o'qitishning zaruriyati.....	6
1.2. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llashning ilmiy-nazariy asoslari.....	15
II BOB. Innovatsion texnologiyalar asosida iqtisodiy fanlarni o'qitishdagi dolzarb muammolar va ularning yechimi haqida.	
2.1. Iqtisodiy fanlarni o'qitishning amaliyotda dolzarb muammolari.....	21
2.2. O'quv jarayonida interfaol usullar va ularning texnologik xaritasi.....	27
III BOB. Iqtisodiy ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati.	
3.1. Iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish bo'yicha amaliy tadqiqotni tashkil etish, innovatsion texnologiyalarni qo'llashning usul va vositalari.....	37
3.2. Samarqand Iqtisodiyot kollejida mehnat xavfsizlik tadbirlarini tashkil etish va uning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligi.....	47
Xulosa va takliflar.....	52
Foydalanilgan adabiyotlar.....	55

**“Eng yangi zamonaviy o’quv vositalari
bilan -ta’minlangan ta’lim muassasalarida
eskidan qolgan o’qitish usullarining davom
etishga mutlaqo yo’l qo’yib bo’lmaydi.”**

KARIMOV I.A

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ta’lim tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimining tubdan isloh qilish, barkamol avlodni yetkazish to‘g‘risida»gi Farmoni (08.10.1997 yil), «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni hayotga tadbiq etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu dasturiy hujjatlarda kadrlarning mamlakatimizni iqtisodiy ravnaq topishini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynashi hisobga olingan.

Bugungi kunda Respublikamizda ta’lim sohasida olib borilayotgan ishlarning barchasi ta’lim tizimimizni yangilash, jahon tajribalaridan yangiliklarni ta’lim jarayoniga joriy qilish va buning natijasida zamon talablariga javob bera oladigan, yuksak mahoratga ega, ilg‘or fikrlaydigan malakali kadrlar tayyorlash bosh maqsad qilingan. Pedagoglar yoki bo‘lajak pedagog yoshlar bu soha bo‘yicha chuqur nazariy bilimlarni, boy amaliy tajribaga ega bo‘lish sirlarini, sohaning o‘z qonun-qoidalarini mukammal o‘rganib chiqishlari, o‘z kasbiy bilimlarini yanada rivojlantirishlari lozim bo‘ladi. «Talabalarning kasbi bo‘yicha bilimlarni shakllantirish, rivojlantirish qatorida chuqur ilmiy asosli, keng hajmli ma’lumotlar manbaini berishda jahon tajribasiga tayangan holda hamda 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da belgilangan ustuvor vazifalardan biri hisoblangan yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish ayni paytda mamlakatimizda ta’lim tizimini yangilash, zamonaviylashtirishga oid islohotlar kechayotgan bir davrda ko‘zlangan maqsadlarning muqarrar ijobiy

samarasi hisoblanadi»¹. Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar, yangi metodlarni qo'llashning o'quvchi yoshlarda nafaqat bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdagi hissasi, balki ularning keyingi ish faoliyatlarida zarur bo'lgan keng va teran fikrlash, tanqidiy mushohada, chuqur mulohaza, kuchli xotira, o'z jamoasini yetaklay olish, jamoasi bilan hamkorlikda ish olib borishga o'rganish, ularni himoya qila olish, ijodiy fikr yuritish, o'z fikrlarini himoya qila olish, mantiqiy dunyoqarash, o'z qarashlarini erkin va ochiq bayon eta olish, fikrlash faoliyatini jadallashtirish va uzoqni ko'ra olish, yangiliklarga intiluvchanlik, izlanuvchanlik ruhi va boshqalarni ham undash kabi hislatlarni shakllantirishdagi hissasi beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi: Respublikamizda iqtisodiy fanlarni o'tishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning dolzarb muommolari talabalarining o'z kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish borasida ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini aniqlash, ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishning nazariy, amaliy va metodik jihatlarini o'rganishdir. Ushbu tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda tadqiqot ishimning **vazifalari** quyidagilardan iborat:

- Mavzuimga bog'liq bo'lgan barcha adabiyotlarni o'rganib chiqish;
- Ta'lim tizimiga joriy etilayotgan barcha zamonaviy texnologiyalarni tahlil etish va tizimlashtirish;
- Yangi pedagogik texnologiyalarning amaliy metodik jihatlarini tadqiq etish;
- Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rnini aniqlash.
- Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning dolzarb muammolarini ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti: Samarqand Iqtisodiyot kolleji talabalarining iqtisodiy fanlar bo'yicha dars jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Iqtisodiy fanlarni o'qitishda kasb-hunar kollej talabalarining kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishda yangi pedagogik

¹ O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonun. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlari to'plami.

texnologiyalarni joriy etish orqali yangi pedagogik texnologiyalarning amaliy va metodik jihatlarini ko'rsatib berish.

Asosiy ishchi ilmiy taxmin: Iqtisodiy fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llab, qisqa vaqt ichida katta hajmdagi bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish dars jarayonini qiziqarli va mazmunli tashkil etish va darsning samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi degan taxminga kelindi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy asosi: Respublikamiz Prezidenti ta'lim sohasida qabul qilgan qonun, qaror va farmonlari, pedagog olimlarimiz Azizxodjayeva N.N «Pedagogik texnologiyala va pedagogik mahorat», Tojiboyeva D "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi", Ziyomammedov kabi qator olimlarning ilmiy izlanishlari, kitoblari tadqiqotning nazariy va metodologik asosi sifatida olindi. Aniq vazifalarni hal qilishda iqtisodiy, pedagogik adabiyotlardan va yangi pedagogik texnologiyalar mohiyatini yoritib bergan pedagogik adabiyotlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati: Tadqiqot materiallari yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ma'ruza matni tayyorlashda hamda kasb-hunar kollejlarda metodik amaliy qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi.
2. Kasb-hunar kollejlarda iqtisodchi mutaxasislarni tarbiyalashning shart-sharoitlari aniqlandi hamda ta'lim istemoliga kiritildi.
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodchi mutahasislarni tarbiyalashning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy- uslubiy tavsiyalar berildi.

Bitiruv malakaviy ishimning tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulasa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

Birinchi bobda Innovatsion texnologiyalar va ularning ilmiy-nazariy asoslari tog'risida. Ikkinchi bob Innovatsion texnologiyalar asosida iqtisodiy fanlarni o'qitishdagi dolzarb muammolar va ularning yechimi haqida. Uchinchi

bob esa iqtisodiy ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati to'g'risida.

I BOB. IQTISODIY FANLARNI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHGA ZARURATNING TO'G'ILISHI VA ULARNING ILMIY-NAZARIY ASOSI

1.1. Iqtisodiy fanlarni vujudga kelishi va iqtisodiy fanlarni o'qitishning zarurati

Iqtisodiy fanlar iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida asosiy fan sifatida o'qitiladi.

Iqtisodiyot fanlarning ahamiyati keyingi yillarda ro'y berayotgan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi O'zbekiston sharoitida bartaraf etish yo'llari va choralarini izlab topish va izchil amalga oshirish hamda bu borada erishilayotgan yutuqlar orqali ham yoqqol namoyon bo'ladi. "2012-yilda Yalpi ichki mahsulot- 8,2 foizga, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi- 7,7 foizga, qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmi- 7 foizga Yalpi ichki mahsulotga nisbatan 22,9 foizni tashkil etgan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining oshib borishi iqtisodiyot o'sishi barqaror yuqori sur'atlarning va uning tuzilmalarini diversifikatsiyalashning asosiy manbai bo'ldi. 11,7 milliard dollorga teng miqdorda yoki 2011-yildagiga nisbatan 14 foizga ko'p investitsiya jalb etildi. Barcha investitsiyalarning 22foizdan ortig'i yoki 2,5 milliard dollardan ortig'ini xorijiy investitsiyalar tashkil etganligini takidlash lozim»¹.

Iqtisodchi mutahasislar iqtisodiy fanlar yordamida avlod ajdodlarimizning boy merosini o'rganish va uni amaliyotda qo'llash yo'llarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Chunki talabalarning o'tmishdagi iqtisodiy qarashlar va g'oyalar hamda olib borilgan iqtisodiy siyosat yuzasidan holis xulasalar chiqarishlari ham nazariy ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bois mamlakatimizda shakllanayotgan milliy iqtisodiy tafakkurning insonparvar va

¹ "Zarofshon gazetasi" 2013yil , 16-mart.

umumbashariy bo'lishligi uchun milliy qadryatlarni ham sinchiklab o'rganish beqiyos ahamiyat kasb etadi va fanning dolzarbligini belgilaydi. Iqtisodiy fanlarni o'rganishning dolzarbligi ayniqsa hozirgi kunda ortib bormoqda, chunki insoniyat jamiyati paydo bo'lgandan boshlab yuzaga kelgan ilk iqtisodiyot nazariyasidan tortib to zamonaviy iqtisodiy fanlarni vijudga kelish jarayoni va mazmunini obyektiv yoritib beradi.

Taniqli davlat arbobi Uinston Cherchill (1874-1965) «Qayerga borishimizni bilish uchun, qayerdan chiqqan ekanligimizni bilishimiz kerak», deb aytgan edi. Bu g'oya nihoyatda ahamiyatli bo'lib, bosib o'tilgan yo'lni to'g'ri baholash va kelajak istiqbolni ko'zlash haqida gap boradi. Shunday ekan biz ham iqtisodiy fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni bugungi kunda qo'llashning zaruratini aniqlash uchun biz uni qayerdan kelganini bilishimiz kerak.

Albatta, bugungi kunning dolzarb muammolarini to'la hal etishda o'tgan davr iqtisodchilaridan tayyor javob topish qiyin, ammo o'tgan donishmandlarning fikr-mulohazalari hozirda va kelajak to'g'risida to'g'ri xulosa chiqarish va Yangi g'oyalarni yaratish uchun imkon beradi. Aniqrog'i, oldin yaratgan mashinani qayta kashf qilishga hojat qolmaydi. Shunday ekan biz ham iqtisodiy fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llashning ahamiyatini baholash uchun tarixga nazar tashlamog'imiz darkor. Zero tarixiy tajriba shunisi bilan ham qimmatlidir.

Dastlabki iqtisodiy fikrlar quldorlik davridan e'tiboran yozuv paydo bo'lishi bilanoq Qadimgi dunyoda vujudga keladi. Miloddan 4 ming yil avval o'sha davrning madaniyat o'chog'i hisoblangan Mesopotamiya va Misrda ilk yozuv kashf qilinadi. Bunga asosiy sabab shuki, bu yerda texnologik inqilob ro'y berdi, metall qurollar ishlatila boshlandi, qishloq xo'jaligida intensiv, ko'p hollarda sug'orma dehqonchilikka o'tildi. Oqibatda jamiyatda mehnat taqsimotini rivojlantirishga, ko'pgina hunarmandchilik sohalarining ajralib chiqishiga, sinfiy tabaqalanishga turtki bo'ldi.

Qadimgi Sharqda ancha rivojlangan davlatlardan biri Vaviloniya bo'lgan. Unda xususiy mulkchilik va tovar-pul munosabatlari nisbatan tez rivojlana boshladi. Jamiyatdagi kishilar borgan sari ko'proq tovar ayirboshlashga jalb

qilinardi. Ularning ba'zilar sudxo'rlar to'riga ilinib, xonavayron bo'ldi va qullarga aylandi. Jamiyatdagi erkin kishilarni sudxo'rlardan himoya qilish maqsadida (ularning mulkini himoya qilish, savdo, ijara va boshqa shartlarini qonuniy ravishda rasmiylashtirish) xususiy, huquqiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish zarurati kuchaydi. Bu borada iqtisodiy fikrlar nuqtai nazaridan Eshnunn podshohi qonunlari (m.o. XX asr) va Hammurapi qonunlari (m.o. XVIII asr) ancha diqqatga sazovor.

«Eshnunn qonunlari matni asosiy mahsulotlarga qat'iy baho o'rnatishdan boshlanadi. Bunda arpa, yog', teri, tuz, miss va boshqa mahsulotlarning kumushdagi narxi o'rnatildi. Qat'iy narxning o'rnatilishi qonun tuzuvchilarga yollanma va ijara haqi darajasini, jarima miqdorini, foiz normasini aniqlash imkonini berdi. Podsho qonunlari tovar-pul munosabatlarining rivojlanishida ijobiy rol o'ynadi.

«Avesto», ya'ni «hayot yo'riqnomasi» zardushtiylik dinining muqaddas kitobi sanaladi. Kitobning muallifi Zardusht (m.o. 589-512y.) hisoblanadi. U Markaziy Osiyoda faoliyat ko'rsatgan ilohiyatchi, faylasuf, shoir va tabiatshunos olim bo'lgan.

«Avesto» boshidan oxirigacha yer yuzida adolat qaror topishi uchun kishilarning rangidan, tilidagi va urf-odatlaridagi farqlaridan qat'iy nazar ularning ro'shnoli hayoti uchun kurashuvchi jasur, halol, pok insonlarni shakllantirish va tarbiyalash g'oyasi bilan sug'orilgan. Jumladan, sun'iy sug'orish asosida dehqonchilik yuritish, ona tabiatni e'zozlash, hayvonlarni asrash, noo'rin so'ymaslik, tuproq sharoitini yaxshilash masalalari yoritilgan.

«Avesto»da ...yerga yaxshi, sog'lom urug'lar sepishdan ortiq savob ish yo'q...» deb, xalq xo'jaligi sohasida dehqonchilikning muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatib beriladi. Jumladan, kitobda yer, suv, havoni bulg'ash, ifloslantirish og'ir gunoh hisoblanadi.

Shu bilan birga asarda ijtimoiy-iqtisodiy muammolar aks ettirilgan. Masalan, «yomon ovqatlangan xalq na yaxshi, kuchli ishlovchilarga va na sog'lom,

baquvvat bolalarga ega bo'ladi», deb uqtiriladi. Shu bilan birga «yomon ovqatlanishdan odob-axloq ham aynib ketadi».

«Avesto»ning to'liq asl nusxasi saqlanmagan, uning ayrim qismlari topilgan, hozirgi davrda rus va o'zbek tillariga tarjima etilgan.

«Avesto» miloddan avvalgi 9-7 asrlar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy hayoti haqida g'oyat muhim ma'lumotlar beruvchi bebaho obida, xalqimizning merosiy boyligidir»¹.

Qadimgi Hindiston xo'jaligi, ijtimoiy tuzumi va iqtisodiy fikrlarini o'rganishning asosiy manbai bo'lib «Artxashastra» asari (m.o. 4 asr oxiri) hisoblanadi. Uni podsho Chandraguptining maslahatchisi Kautilya yozgan deb taxmin qilinadi. Bu nodir asar 15 kitobdan iborat bo'lib, «artxa» so'zi – foyda, moddiy manfaat, «shastra» - ilm, ilmiy asar ma'nosini bildiradi.

Asarda qulchilikni mustahkamlash asosiy vazifa qilib qo'yilgan. Qulchilik eng past tabaqalarga xos narsa deb sanalgan.

Bu asarda davlatni boshqarish bo'yicha takliflar berilgan bo'lib, bir qancha iqtisodiy g'oyalar ham ilgari surilgan. Unda podsho to'rtta «ilmni» bilishi zarurligi to'g'risida fikr yuritiladi. Uning bittasi iqtisodiyot hisoblanadi. «Iqtisodiyot» dahqonchilik, chorvachilik va savdo sifatida ko'rib chiqiladi.

«Artxashastra»da aytilishicha, davlat yangi mintaqalarni tashkil etish va odamlarni u yerlarga o'rnashtirish ishlarini amalga oshirishi kerak. Yangi ko'chib kelganlarga yer soliq to'lash sharti bilan shaxsiy foydalanishga berilgan. Agar beriladigan yerlar yaxshi ishlatmasa, ularni tortib olish va yaxshi ishlaydigan dehqonlarga berish tavsiya etiladi.

Asarda davlat bozor bahosini tartibga solib turishning chora-tadbirlarini ko'rib chiqilishi lozimligi to'g'risida fikr yuritgan. Masalan, unda mahsulotning bozor bahosi bilan uning tabiiy qiymati o'rtasidagi farq aytilgan. Tovarga bo'lgan ehtiyoj ortganda, uning bahosi qiymatdan oshib ketishi mumkin, deyilgan. Savdo bilan shug'ullanuvchilarga alohida urg'u berilgan bo'lib, foydaning miqdori tovar bahosiga (boshqa harajatlar qatorida) qo'shilib, mahalliy mahsulot uchun 5,

¹ Sharifxo'jayev Iqtisodiy talimotlar tarixi T.: 2009 yil 21-bet

chetdan kelgan tovarlar uchun 10 foiz qilib belgilangan. Tovarlar bahosining mavsumga qarab tebranib turishini bartaraf etish uchun, davlatning kerak paytda muomalaga chiqaradigan tovar zaxirasi bo'lishi kerak. Bu bilan tovarlar bahosi barqarorligini ta'minlashga erishiladi.

«Artxashastra»da davlatning moliya muammolarini yechishga katta ahamiyat beriladi. Jumladan, daromad solig'iga kata e'tibor berilgan. Davlat ba'zi ishlarini rivojlantirishi uchun moddiy va ma'naviy yordam berishi kerak, deyilgan. Mahsulotga baho belgilash, davlatning boyishini ta'minlash (foydani oshirib, sarf-harajatni kamaytirish), hisob-kitobni tartibga solish kerakligi belgilangan. Shu bilan birga davlat amaldorlarini tez-tez o'zgartirib turish kerakligi tavsiya etilgan, chunki «suvda suzib yurgan baliq, o'sha suvdan ichayaptimi, yo'qmi- bilib bo'lmaganidek, ishga birkutilgan amaldor mulkni o'zlashtirayaptimi, yo'qmi – aniqlab bo'lmaydi», deyiladi asarda.

Qadimgi Xitoy mutafakkirlari ichida Konfutsiy (m.o. 551-479y.) alohida o'rin tutadi. Konfutsiyning fikrlari uning shogirdlari yozib qoldirilgan «Lun yuy» («Suhbat va mulohazalar») to'plamida aks ettirilgan. Uning fikricha, mehnat ham kishilarning, ham davlatning boyligini ko'paytiradi. Konfutsiy «buyuk jamoa mulki» (dehqonlar jamoasi mulki) va xususiy egalik (quldorlar mulki)ni farqlaydi, ikkinchisini ko'proq qo'llaydi. Bu yerda u xususiy mulkni xo'jalik yuritishda ustun qo'yadi. Konfutsiy aqliy mehnat bilan jismoniy mehnat farqini ko'rsatib, aqliy mehnat bilan «yuqori» tabaqali kishilar, jismoniy mehnat bilan esa, asosiy qismi qullardan iborat bo'lgan «oddiy» kishilar shug'ullanadi, deb qayd qilib o'tadi.

Konfutsiy ta'limotiga ko'ra, bilimdon hukmdor – u «xalqning otasi», «to'g'ri amal qilishning» va boylikni ancha tekis taqsimlashning kafolati. Uning tasdiqlashicha, Xudo va tabiat tomonidan jamiyat toifalarga ajratilgan, ammo shu bilan birga u har bir odamni ma'naviy yuksalishga da'vat etgan, kattalarga bo'lgan hurmat qoidalari to'g'risida, farzandlik burchi to'g'risida, aka-ukalar o'rtasidagi do'stlik to'g'risida qimmatli fikrlarni ilgari surgan.

Iqtisodiy fikrlar qadimgi Gresiyada Yana ham rivojlantirildi. Ksenofont, Platon, Aristotel asarlarida iqtisodiy muammolar maxsus tadqiqot ob'ektiga

aylandi. Buni Sokratning shogirdi, Platonning zamondoshi Ksenofont (m.o. 430-355y.) asrlarida yaqqol ko'rish mumkin. Uning asarlari ichida «Daromadlar to'g'risida» va «Ekonomikos» (xo'jalik to'g'risida ta'limot) asarlari alohida ahamiyatga ega.

Ksenofont «Daromadlar to'g'risida» asarida Afina davlatining iqtisodiy holatini tahlil qilib, uni yaxshilashning 3 yo'lini tavsiya etadi:

- 1) xorijiy kishilardan olinadigan soliqni ko'paytirish, ularning Afinaga kelishini rag'batlantirish;
- 2) kumush qazib olishni kengaytirish;
- 3) qullar savdosini tashkil etish.

Ksenofont qishloq xo'jaligini xalq xo'jaligining eng asosiy tarmog'i deb hisoblagan. «Qishloq xo'jaligi rivojlansa, - deb yozadi u, - boshqa faoliyat turlari ham rivojlanadi».

Ksenofont iqtisodiy fikrlar tarixiga birinchilardan bo'lib mehnat taqsimotini tahlil qilgan olim sifatida kirib keldi. (bir usta erkaklarning oyoq-kiyimini tikadi, boshqasi esa – xotinlarning).

Har qanday tovarning ikki yoqlama xususiyatini, ya'ni uning foydaliligini va almashuv qobiliyatini birinchilardan bo'lib tushungan ham Ksenofont hisoblanadi. Bundan tashqari, u pulning zarurligini va foydaliligini tan olgan va unga xos bo'lgan muomala vositasi va jamg'arish vositasi funksiyalarini ko'rsatib bergan.

Antik dunyodagi iqtisodiy qarashlarning yirik namoyandalaridan biri Aristotel (Arastu) (m.o. 384-322y.) hisoblanadi. Bu qadimgi grek mutafakkiri boshqa zamondoshlariga qaraganda iqtisodiy muammolariga chuqurroq kirib borishga muvaffaq bo'lgan. Uning asosiy asarlari «Nikomaxov etikasi» va «Siyosat» hisoblanadi. Bu yerda Aristotel, xudi Platonga o'xshab, ideal davlat loyihasini ilgari suradi. Uning fikricha, jamiyatning quldor va qullarga bo'linishi – bu tabiiy va qonuniy hol bo'lib, odamlarning tabiatan turli-tumanligidandir.

Shu bilan birga Aristotel o'z asarlarida iqtisodiyot (ekonomika) va xrematistika tushunchalari farqini ajratib ko'rsatib beradi. Ekonomika, Aristotel tushunchasi bo'yicha – bu, eng avvalo, dehqonchilikdagi kishilarning hamda

hunarmandchilik ham uyda savdo bilan band bo'lganlarning asosiy va sharaflil faoliyatidir. Uning maqsadi – insonning eng muhim ehtiyojlarini qondirish hisoblanadi va shuning uchun unga davlat g'amxo'rlik qilishi kerak. Xrematistika esa – bu yirik savdo yo'li bilan boylik orttirish mahoratidir. Boshqacha aytganda, xrematistika – bu kapital qo'yish, sudxo'rlik va jamg'arish «san'ati»dir. Aristotelning aytganicha, «ekonomika maqtovg'a sazovor», xrematistika esa «tanbehga».

Dastlabki iqtisodiy g'oyalar insoniyatning paydo bo'lishi bilan shakllangan, ammo bizgacha yetib kelganlari miloddan avvalgi 2-ming yillikka to'g'ri kelib, ko'proq qadimiy Osiyo xalqlarining xo'jalik faoliyatini aks ettiradi. Bu iqtisodiy qarashlarning vujudga kelishi qadimgi davlatlar vujudga kelish tarixi bilan teng. Bundan xulosa qilish mumkinki hech bir davlatni iqtisodsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Iqtisodiyorning to shu bugunga qadar rivojlanish evalutsiyasi har bir davlatda kuchli iqtisodchilarni tarbiyalab yetishtirish zaruratini to'g'tirmoqda. Shuning uchun mening ushbu mavzuim iqtisodiy fanlarni yanada rivojlantirish va ta'lim samaradorligini oshirishning naqadar zarurligini ko'rsatib beradi.

O'rta Osiyo X-XIV-asrlarda Sharqda ilg'or ijtimoiy tafakkurlar rivojlangan bir markazga aylandi. Bu davrda dunyoga mashhur bo'lgan Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib va boshqa ko'plab olim va shoirlar, davlat arboblari yetishib chiqdi.

Bu mutafakkirlarimizning iqtisodiy qarashlari bugungi kunda ham ahamiyatlidir.

Ibn Sino oddiy musulmon sifatida xudo borligiga to'la ishonadi, lekin dunyoda odamlarning ishi faqat toat-ibodat qilish, ro'za tutish, Qur'on o'qishdangina iborat emas, balki ularning Fan, ma'rifat bayrog'ini ko'tarib, foydali (savobli) ishlar qilishlari ulug'lanadi. U bilimlarni egallasa, o'shandagina haqiqiy musulmon bo'la oladi, deb ta'kidlaydi.

Amir Temur (1336-1405) iqtisodiyotni boshqarishda o'ziga xos maktab yaratadi. U davlatning barcha ishlarini: soliq yig'ish, tartib saqlashni, ijtimoiy binolar – bozorlar, hammomlar, yo'llar, suv inshootlari tarmoqlarini nazorat qilib

turgan. Uning xodimlari vaqti-vaqti Bilan tekshirish va taftish ishlarini olib borgan. Ayniqsa, toshu-tarozi to'g'riligi, odil baho tekshirib turilgan, qallob va tovlamachilar qattiq jazolangan.

Mamlakatda dehqonchilikka katta e'tibor berilgan bo'lib, yerga egalik qilish qo'yidagi ko'rinishda bo'lgan:

1. Suyurg'ol yerlar – bir avloddan ikkinchisiga o'tgan. Suyurg'ol egasi soliqdan ozod qilingan. Bunday yer egalari dehqonlarni ishlatib, yer solig'i – xiroj olganlar.
2. Tarxon yerlar – bu yerlar xususiy mulk bo'lib, ular odamlarga Biron-bir xizmat uchun berilgan.
3. Ushr yerlar – sayid va xo'jalarga mansub yerlardir. Bundan olingan hosilning 1/10 davlatga berilgan.
4. Vaqf yerlar – masjid, madrasa, qabriston vash u singari joylarga doir yerlardir.
5. Askarlarga, ularning rahbarlariga beriladigan yerlar.

Kimda-kim Biron sahroni obod qilsa yoki inshoot qursa, biron bog' ko'kartirsa, birinchi yili undan soliq olinmagan. Ikkinchi yili raiyat o'z roziligi Bilan berganini olingan. Uchinchi yil xiroj yig'ilgan. Xiroj odatda sug'oriladigan yerlarda 33%, lalmikor yerlarda 25% teng bo'lgan miqdorda to'plangan. Mazkur muammoga bunday yondashuv ishlab chiqarishni rivojlantirishda ijobiy rol o'ynagan. Bundan tashqari, dehqonlar, kasb-hunar egalari, savdogarlarga o'z ishlarini yuritish uchun urug', asbob, sarmoya berib, sharoit yaratishga e'tibor berilgan.

Amir Temur Angliya va Fransiya qirollariga murojaat etib, xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirishga harakat qilgan. Savdo-sotiq ishlarini kuchaytirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratib berilgan. Markaziy Osiyo orqali o'tadigan Buyuk ipak yo'lida karvonlarning xavfsizligini ta'minladi.

Shu narsaga alohida e'tibor berish kerakki, chetdan olib kelingan tovarlar ustiga 10% narx qo'shib sotish mumkin bo'lgan. Bu, chet El tovarlariga bo'lgan talabni kuchaytirgan va aholining iste'mol buyumlariga bo'lgan ehtiyojini to'laroq qondirishga imkon bergan.

Amir Temurning iqtisodiy fikrlari «Temur tuzuklari»da bayon etilgan. Unda o'sha davrdagi davlatning 12 ijtimoiy toifadan iborat bo'lganligi ko'rsatilgan.

“Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501) ijodida iqtisodiy g'oyalar muhim o'rin egallaydi. Unda asosan tijorat, savdo muammolari ancha mukammal yoritilgan. Navoiy asarlarida savdo faoliyati ma'qullanadi, ammo tovlamachi va chayqovchilik qattiq tanqid qilinadi.

A.Navoiyning dastlabki asari «Hiloliya» hisoblanadi. Mazkur asarda mamlakatning iqtisodiy ahvolini u hukmdorning aql-idroki va qobiliyatiga bog'liq deb biladi. Agar mamlakat hukmdori fanlarni, ayniqsa, iqtisodiyot, tarix, falsafa va siyosiy fanlarni mukammal bilsa, o'zi boshqarayotgan mamlakat obod va badavlat bo'ladi, agar aksi bo'lsa, mamlakat qashshoq va harob bo'ladi, deydi Navoiy.

Navoiy mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga alohida e'tibor beradi. U boylikni ikki yo'l bilan topish mumkinligini aytadi. Birinchi yo'l – bu o'z mehnati bilan boylik to'plash, yig'ish va o'ziga to'q yashash. Bunday boylikni u qo'llab-quvatlagan. Navoiy olingan boylikni 3 qismga bo'lib, ya'ni 1-chi qismini ketgan harajatlarga, 2-chi qismini o'zining va oilasining ehtiyojlariga, 3-chi qismini aholining ijtimoiy manfaatlariga sarflashni tavsiya etgan.

Navoiy ko'pgina madrasa, shifoxona, hammom, ko'prik va boshqalarni o'z hisobidan qurdirgan. Boylik topishning ikkinchi yo'li bu o'g'irlik, ta'magirlik va zo'rlik hisobiga boylik orttirishdir. Navoiy bunday boylik orttirishga keskin qarshi chiqdi, qoraladi va bunday kishilarni jamiyatning parazit qatlamiga qiritdi.

Navoiy o'zining «Mahbub-ul-qulub» (1500y.) asarida dehqonlar, hunarmandlar va chet El bilan aloqasi bor savdogarlar jamiyatda moddiy boylik yaratishda va mamlakatning boyligini ko'paytirishga muhim o'rin tutadi, deb hisoblaydi”¹.

Biz yuqorida ta'kidlab utganimiz mamlakatlarda iqtisodiy qarashlarning bugungi iqtisodiy fanlarning vujudga kelishiga qanchalik zamin bo'lganini ko'rishimiz qiyin emas. Bu faylasuf hamda iqtisodchi olimlarning qarashlarini

¹ Sharifxo'jayev Iqtisodiy talimotlar tarixi T.: 2009 yil 14-bet

bugungi kun yoshlari ongiga tularoq va kelajakda yangi iqtisodiy qarashlarni vujudga keltiraoladigan sog'lom bilim tarzida yetgazishning bugungi ahamiyati juda ham kattadir. Bu bilan biz aytmqchimizki tarixda iqtisodiy fanlarni o'qitishdagi pedagogik mahoratni bugungi kunda innovatsion texnologiyalar bilan yangilash va ularning samaradorligini oshirishdir.

1.2. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llashning ilmiy-nazariy asoslari

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish –innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. “innovatsion-pedagogika” termini va unga xos bo'lgan tatqiqotlar G'arbiy Yevropa va AQSHda XX asrning 60-yillarida paydo bo'ldi. Innovatsion faoliyat F.N.Gonolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin, A.I.Shcherbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tatqiqotlarda innovatsion faoliyat yangilik va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritiladi.

X.Barnet, Dj Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M.Mayez, A.Xeyvlok, D.Chen, R,Edem ishlarida innovatsion jarayonlarni boshqarish, ta'limdagi o'zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyalarning “hayoti va faoliyati” uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar masalalari tahlil qilingan.

Yangiliklar kiritishning ijtimoiy-pisixalogik aspekti amerikalik innovator E.Rodgers tomonidan chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosatini, uni idrok qilishga shayligini tatqiq etadi.

Innovatsiya (inglizcha inovation) –yangilik kiritish, yangilikdir.

A.I.Prigojin innovatsiya deganda, muayyan ijtimoiy birlikka tashkilot, aholi, jamiyat, guruhda yangi nisbatan turg'un unsirlarni kiritib boruvchi maqsadga muofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.

Tatqiqotchilar (A.I.Prijorin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Axiezer, N.P.Stepanov va boshqalar)innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini

o'rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: yangiliklarning individual mikro sathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zoro tasirini mikrosathi.

Birinchi yondashuvda, hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi. Ikkinchi yondashuvda, alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro tasiri, ularning birligi, raqobati va natijada birining o'rnini ikkinchisi egallashidir.

Bu kansepsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

«Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayonning sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi:

1. Yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilik kansepsiyasini paydo qilish bosqichi, u kayfiyat bosqichi deb ham yuritiladi.
2. Ixtiro qilish ya'ni yangilik yaratish bosqichi.
3. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi.
4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiiq etish bosqichi.
5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili payda bo'ladi.
6. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.
7. V.A.Slastenin yangilik kiritishni maqsadga muofiq yo'naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalar bilan qondirish deb biladi»¹.

Yangilik kiritishning tizimli kansepsiyasi mualliflari (A.I.Prijorin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy) innovatsion jarayonlarning ikki muhim shaklini farqlaydilar.

Birinchi shaklga, yangilik kiritishning oddiy jarayonlari kiritiladi. Bu ilk bor mahsulot yaratgan tashkilotlarga tegishlidir.

Ikkinchi shaklga, yangiliklarni keng ko'lamda ishlab chiqarishga taluqlidir.

¹ Iskandarov E.A., Suyunov O.J. "Pedagogik texnologiyalar" o'quv qo'llanma. Samarqand 2012.

Yangilik kiritish ham ichki mantiq ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof muhitga o'zaro tasirini ifodalaydigan dinamik tizimdir.

Pedagogik innovatsiyada “yangi” tushunchasi markaziy o'rin tutadi.

Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari farqlanadi. Yangilik- bu vosita: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar.

“Innovatsiya” – bu ta'lim: ma'lum bosqichlar bo'yicha rivojlanadigan jarayon. V.I.Zagvyazinskiy “yangi” tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi “yangi” faqatgina bu g'oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir.

R.N.Yusufbekova pedagogik yangilikka o'qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'lmagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariy va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqeylikning o'zgarib turishi mumkin bo'lmagan mazmuni sifatida qayt qilinadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, pedagogika ilmining tadqiqot obyekti sifatida, aniq fanlarni o'qitish uslubi bo'libgina qolmay, balki ijtimoiy=iqtisodiy fanlarni o'qitishga ham yangicha yondashuv sifatida qayd qilinishi kerak.

Hozirgi kunga kelib, jamiyatimiz jadillik bilan taroqqiy etib, iqtisodiy va siyosiy mavqei kundan kunga ortib bormoqda. Biroq ijtimoiy sohada va ayniqsa, ta'lim-tarbiya jarayonida umumiy taroqqiyotdan biroz orqada qolish sezilmoqda. Bunday noxush vaziyatdan chiqib ketish yo'llaridan biri ta'lim-tarbiya jarayonini qabul qilingan davlat standartlari asosida texnologiyalashdir.

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali uzliksiz ta'lim samaradorligini oshirishga alohida e'tibor berilyapti. Pedagogik texnologiyalar—ta'lim berish va zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash yordamida talabalarning shaxsiy sifatlarni rivojlanish va takomillashtirish imkoniyatini beruvchi o'quv vositalari bo'lib, u o'ziga xos didaktik va uslubiy asosga ega.

Iqtisodiy fanlarning o'qitilish sifati va samaradorligini oshirish maqsadida, pedagogik texnologiyalarni zamonaviy axborot texnologiyalar imkoniyatlari asosida uch turdagi o'quv mashg'ulotlariga, ya'ni ma'ruza, amaliy va laboratoriya

mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kompleks holda qo'llash tavsiya etiladi. Iqtisodiy fanlardan o'rganilayotgan materiallarning o'quv soatlari miqdori hisobga olingan holda mavzu bloklarga ajratiladi, har bir maruza mavzu blokiga 2-8 o'quv soati oralog'ida vaqt ajratiladi hamda ushbu mavzu blokiga mos amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mazmuni va hajmi belgilanadi. Bu usulda har bir mavzuni o'rganishdagi ichki izchillik va uzviylik to'la saqlanadi va talabalarda mavzuga oid malaka va ko'nikmalarni to'laroq va maqsadliroq shakllantirish imkoniyati kuchayadi.

Men shu o'rinda aytib o'tmoqchimanki darslarni mana shunday turli xildagi innovatsion texnologiyalar orqali olib borish bir qancha afzalliklari bor.

Birinchidan, vaqtni tejaydi bunda kam vaqt ichida ko'p talabani baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ikkinchidan, talabalarni aktiv ishlashga mulohaza qilishga, o'zini fikrini bayon qilishga o'rgatadi.

Uchinchidan, talabani o'z ustida ko'proq ishlashga undaydi.


Ananaviy usulda o'quv axboroti asosan o'qituvchi tomonidan bayon qilinadi, o'quvchilar esa mazkur bilimlarni xotirasida saqlashlari va mustahkamlashlari kerak. Talabalarda bu bilimlarning borligini imtixonlarda ularni xotirada qayta tiklab takrorlab aytib berishi, ya'ni bu bilimlarga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilinganda, ularni hech qanday qo'llanmasiz xotirada aytib berishi tekshiriladi. Bu tizimda bilimlar-asosan yodda saqlash natijasidir, ko'p xollarda bu formal ma'lumotlardir. Ular xotirani ichidan yuzaga chiqariladi, boshqacha qilib aytganda unga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilib savol berilganda esga (yodiga) keltiriladi. Biroq o'qish-o'qitish natijasi xotirlash darajasidagi bilimlar xotirada uzoq saqlanmaydi, zarur vaqtda o'quvchilar ularni juda qiyinchilik bilan eslaydi, ko'p xollarda esa umuman eslayolmaydi.

Noananaviy ta'lim usulida esa, imkoniyatlar juda katta biz buni bugungi kundagi darslarimizda ham guvoh bo'lib turibmiz. Zero bu bugungi kunda davr talabi hamdir.

Yuksak yutuqlarga erishishimiz uchun o'quv yurtlarida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari, innovatsion texnologiyalarning o'zni juda katta deb hisoblaymiz. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish va uni amalga oshirishda interfaol metodlardan, ya'ni jamoa bo'lib fikrlashdan to'liq foydalaniladi.

Psixolog olimlar tomonidan isbotlangan va ko'rib chiqilgan o'zlashtirish piramidasiga asosan quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

O'quvchilarning o'zlashtirishi o'quv materiallarini tinglaganda 5%, ko'rgazmali usullar qo'llaganlarida 20%, baxs-munozara usulida 40%, ishbilarmonlik o'yinlari va munozara usulida 75% va boshqa o'quv materiallarini boshqalarga o'rgatishda 90%ni tashkil etar ekan².



Demak, biz o'qitishning barcha usullaridan keng va samarali foydalanganimizdagina ko'zlangan maqsadga ,ya'ni zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashga va kadrlar sifatini oshirishga erishishimiz mumkin.

Shuni xulosa qilib aytish mumkinki, ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Ta'lim jarayonida talaba mustaqil bilim olish ehtiyoji shakllanib borishi hozirgi kunning talabidir. Vazifa o'quvchining umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'limda ilg'or axborot texnologiyalardan

² "Zarafshon" gazetasi 2012-yil 18-fevral.

foydalangan holda: tayanch bilimlarni egallashtan tortib, o'quv fanlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni interfaol tarzda egallash jarayonining samarali yo'llarini shakllantirishgacha ta'limni tashkil qilishga mutlaqo yangicha yondashuvni ishlab chiqishdan iborat. Bunday yondashuvning maqsadi - innovatsion o'qitish vositalarini qo'llash orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini sifatini oshirishdir.

Hozirda bizning institutimizda darslar innovatsion va axborot texnologiyalar asosida olib borilmoqda. Biz bo'lajak pedagoglar esa bularning barchasini o'rganib, malakaviy amaliyotimizda qo'llab, har bir darsni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar asosida olib bormoqdamiz. Shuning natijasida biz har bir o'quv yurtida ta'lim xizmatlarini sifatli amalga oshirishda o'z hissamizni qo'shmoqdamiz.

Yana shuni aytish mumkinki, hozirgi o'quv jarayonida iqtidorli yoshlar bilan yakka tartibdagi o'quv dasturlari bo'yicha ishlash kabi mexanizmlaridan kam foydalanilmoqda. Iqtidorli talabalar bilan ishlashni kuchaytirish va ularning bilimlarini yanada rivojlantirish kerak. Chunki bizning mamlakatga yuksak salohiyatli, bilimli raqobatbardosh kadrlar kerak. Bunday yoshlarni, ya'ni kadrlarni tayyorlashda muammoli ta'lim tashkil etish va turli texnologiyalardan foydalanish zarur. Bu texnologiyani qo'llash orqali guruhlar ichida kichik guruhlar o'rtasida raqobat muhitini vujudga keltiradi, o'quvchilarni harakatchanlikka chorlab, ruhlantirladi va mustaqil o'qib o'rganishni talab qiladi.

Demak biz bo'lajak pedagoglar raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun quyidagilarni inobatga olishimiz lozim:

1. Iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash;
2. Har bir talabaga individual yondashish;
3. Talabalar o'rtasida raqobat kurashini vujudga keltirib, ularni mustaqil o'qib - o'rganishini tashkil qilish;
4. Darslarni innovatsion va axborot texnologiyalardan foydalangan holda olib borish;
5. Talabalar bilan olib boriladigan mustaqil ta'limni kuchaytirish;
6. Ilmiy to'garaklarni tashkil qilish va iqtidorli talabalarni jalb qilish.

Bundan tashqari ta'lim berish jarayonida turli vaziyatlarga duch kelishimiz mumkin. Bunday vaziyatlarni oldini olish yoki undan chiqib ketish uchun turli xildagi innovatsion tadbirlardan foydalanishimiz ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

II BOB. INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY FANLARNI O'QITISHDAGI DOLZARB MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI HAQIDA

2.1. Iqtisodiy fanlarni o'qitishning amaliyotda dolzarb muammolari

Mamlakatimizda ta'lim tizimining isloh qilishini ta'lim jarayonini ilg'or jahon tajribasidan kelib chiqqan holda tashkil etishni taqozo qiladi. Fan-texnika taraqqiyoti texnologiyani fan sifatida o'rganishni, keyinchalik esa o'quv jarayonini ham texnologiyalashtirishga olib keladi.

Hozir mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy raqobat – fan, texnika va texnologiya sohasidagi raqobatga aylanadi. Demak, raqobat intellektual mohiyat kasb etib, ta'lim sohasidagi raqobatga aylanmoqda desak xato bo'lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti, unga doimo noaniqlik yo'ldosh bo'lishi mutaxassis kadrlar tayyorlashga ham yangicha talablar qo'yadi. Bundan tashqari bugungi kunda bilimning daromad manbai va ijtimoiy himoya sifatidagi rolining ortishi ham uni aniq progmatik ma'no kasb etishiga olib keladi. Shuning uchun ham respublikamizda ta'lim tizimini isloh qilishga alohida e'tibor qaratildi. Biroq respublikamizda ta'lim tizimini isloh qilishga, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta'minlashga doir o'tkazilayotgan islohotlar avvalgi ta'lim tizimining ijobiy tomonlaridan tomomila voz kechish degani emas. Barcha sohada jumladan ta'lim tizimida ham avvalgi erishilgan potensial tayanish, ma'naviy merosni amaliyotga tadbiq etish, ijobiy jihatlardan foydalanish zarur.

Asosiy maqsad – zamonaviy talab darajasida yoshlarimizni tarbiyalash, ijodiy fikrlay oladigan malakali mutaxassislar tayyorlashdir. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim jarayoniga boshqacha nazar bilan qarashni talab etadi. Mamlakatimizda ta’lim tizimida qator kamchiliklar mavjud bo‘lib, u o‘z navbatida zamon talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga tusqinlik qila boshladi. Ularni kadrlar tayyorlash milliy dasturining kamchiliklar va muammolar qismida ko‘rsatib o‘tilgan.

Ushbu dasturiy hujjatda mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tarbiya tizimini tashkil qilish muammolari hal qilinmagani, amaldagi ta’lim tizimini zamonaviy taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmasligi, mutaxassislar tayyorlash, ta’lim-tarbiya tizimi jamiyatda bo‘layotgan islohot, yangilash jarayonlari bozor talablari bilan bog‘langani, mavjud umumta’lim va kasb-hunar dasturlari o‘rtasidagi uzviylik, vorisiylikning yo‘qligi sababli, tayanch va o‘rta maktab bitiruvchilarida kasbga yo‘naltirilganlik va mehnat faoliyati ko‘nikmalari shakllantirilmagani, o‘quv jarayoni bilim darajasi o‘rtacha bo‘lgan o‘quvchilarga mo‘ljallangan bo‘lib ta’limni iqtidorli yoshlar bilan yakka tartibdagi o‘quv dasturlari bo‘yicha ishlash kabi mexanizmlardan yaxshi foydalanilmagani ta’kidlangan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida: «Maktablarda va boshqa o‘quv yurtlarida ta’lim jarayonining o‘zidagi va o‘qitish metodidagi har xil kamchiliklar oqibatida bilim berishda yuzaga kelgan nodemokratik hamda jamiyat uchun zararli muhit shunga olib keladiki, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash rivojlanmay qolyapti, oqilona hayotiy yechimlar qabul qilish uchun yetarli tayyorgarlik yo‘q», - deyiladi³.

Ana shu kamchiliklarni hisobga olgan holda Milliy dasturni amalga oshirishning birinchi bosqichidayoq pedagog va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash hamda ularni malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish masalasi qo‘yilgan.

³ Oliy ta’lim. Me’yoriy hujjatlar to‘plami. T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001, 22-bet.

Ikkinchi bosqichda esa ta'lim muassasalarini moddiy-texnika va axborot olish bazasini mustahkamlashni davom ettirish bilan birga o'quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlanishi amalga oshirilishi va keyingi bosqichda ham davom ettirilishi ko'zda tutilgan edi. Ma'lumki, sobiq ittifoqda 1917 yil ta'lim tizimi tubdan isloh qilinib, bolalarning millati, jinsi, ijtimoiy va moddiy ahvolidan qat'iy nazar tekin bilim olish imkoni yaratilib, 1936 yilga kelib yoppasiga savodxonlik tiklangan edi. Shuning uchun ham fan-texnikada, ayniqsa, atom, kosmik tadqiqot sohalarida katta yutuqlarga erishildi. Yerning birinchi sun'iy yo'ldoshi uchirildi, kosmosga birinchi inson parvoz qildi.

AQSH, Yaponiya va boshqa mamlakatlar buning sirini o'rganishiga, oxir-oqibat o'z mamlakatlarida ta'lim tizimini isloh qilishga kirishdilar. Sobiq ittifoqda keyinchalik ta'lim tizimidagi ma'muriy avtoritar boshqaruv, qattiq partiyaviy dektatura va boshqa qator kamchiliklar ta'lim tizimini ham turg'unlikka olib keldi va peshqadamlik boy berildi. Fan-texnika taraqqiyoti ta'lim tizimida ham tup o'zgarishlarni zaruratga aylantirdi. Natijada pedagogikada ham yangi oqim – ta'lim texnologiyasi, o'qitishning interaktiv metodlari ishlab chiqilib, dars jarayonida foydalanishga katta ahamiyat berilla boshlandi.

Mamlakatimizda bir tomondan, qator sabablarga ko'ra ta'lim sohasida yo'qotilgan ilgarigi mavqeini tiklash, ikkinchi tomondan, rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olish uchun ta'lim samaradorligini oshirish, buning uchun esa chora-tadbirlar belgilash zarur edi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishishi bilan ana shu zaruriyatga alohida diqqat qaratila boshlandi. Aynan ana shu zaruriyat tufayli Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ishlab chiqildi va uni amalda qo'llash taklifi kiritiladi.

Ta'lim jarayonini jahon tajribalari asosida tashkil qilish, o'quvchi-talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishga ahamiyat berila boshaladi. Respublikamizda ham ta'lim jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga e'tibor berish boshlandi.

Shu jihatdan ham kasb-hunar kollejlari davlat ta'lim standartlari bo'yicha ko'zda tutilgan iqtisodiy ta'lim va iqtisodiy tarbiyani takomillashtirish, uni o'quvchilar ongiga singdirib borish, iqtisodiy tafakkurni shakllantirish muammosi dolzarbdir. Chunki har bir o'quvchi talaba bozor munosabatlari rivojlanib borayotgan bir davrda – uni o'rab turgan iqtisodiy voqeilikni, unda kechayotgan jarayonni anglashi, tadqiq va tahlil qilib, xulosalar chiqarish imkoniga ega bo'lishi lozim. Bu esa har bir fuqarodan iqtisodiyot nazariyasining asoslaridan xabardor bo'lishini, uni amalda joriy etish yo'l vositalarini talab darajasida o'zlashtirishini taqozo etadi. Bu masalalar, asosan, o'quv muassasalarida amalga oshirishdir.

O'quvchi-talabalar bosqichma-bosqich uzluksiz ta'lim jarayonida iqtisodiy fanlarini o'rganishi mobaynida ularning tafakkurlari ham shakllana boradi.

Ular quyidagi bilimlar majmui bo'lib xizmat qiladi: shaxsning ehtiyoj imkoniyatlarini hisobga olib, aniq reja va dasturlar tuzib, o'ziga xos uslub va metodlar asosida amalga oshirishda; shaxsning mustaqil faoliyatida samarali o'rin tutadigan aniq iqtisodiy tushunchalarni; iqtisodning siyosat va bozor munosabatlari bilan bog'liq qonuniy asoslari va ulardan amalda foydalanish yo'l-yuruqlarini; mustaqil faoliyat ko'rsatishda zarur bo'ladigan barcha iqtisodiy bilimlar, ko'nikma va malakalar majmuini o'zlashtirishni; hayotda qaysi sohani tanlashdan qat'iy nazar ehtiyoj darajasida iqtisodiy tayyorgarlikni o'zida shakllantirishni; iqtisodiy bilim asoslaridan to'g'ri va maqsadga muvofiq holda foydalana olish shaxs barkamolligini belgilovchi axloqiy sifatlardan biri, deb qarashni; iqtisodiy fanlardan xabardorlikni o'z faoliyati davomida jamiyat va davlat iqtisodiy, huquqiy siyosati asosida namoyon etadi.

Bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot ishlab chiqarishning ko'p sonli tarmoqlari bilan bir qatorda, ma'rifat va madaniyat hamda iqtisodiy sohalarga, shu jumladan, ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiy bilimlar doirasiga ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amlaga oshirish ilmiy muammo sifatida iqtisodiy yo'nalishdagi o'quv yurtlarida maxsus ilmiy-

tadqiqotlar olib borishni koʻzda tutadi. Bunda eng avvalo, quyidagilarni aniqlash lozim:

- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish uchun ijtimoiy pedagogik asoslar mavjudligini aniqlash;
- taʼlim majmui sifatida nimani anglatish va qanday tarkibiy qismlardan tashkil topganligini belgilash;
- pedagogik texnologiyaning funksional majmui jarayon sifatida nimalardan iboratligini aniqlash;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» maqsadlariga qay tarzda toʻgʻri kelishi va uni baholash mumkinligini koʻrsatib berish;
- pedagogik texnologiyaning majmualar nazariyasining asosiy qonuniyatlariga mosligini nazarda tutib turish yoʻl-yurugʻini ishlab chiqish.

Shuni aytish lozimki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, pedagogika ilmiyning tadqiqot obʼekti sifatida, aniq fanlarni oʻqitish uslubi boʻlibgina qolmay, balki ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni oʻqitishga ham yangicha yondashuv sifatida qayd qilinishi kerak.

Rivojlangan bir qator mamlakatlarda muvoffaqiyat bilan qoʻllanilib kelayotgan ilgʻor pedagogik texnologiyalarni oʻrganib, xalqimizning milliy pedagogika anʼanalaridan hamda taʼlim sohasining shu kundagi holatidan kelib chiqqan holda respublikamizning milliy pedagogik texnologiyasini yaratish bugungi kunning talabidir.

Hozirgi vaqtda taʼlimni axborotlashtirishda asosiy yoʻnalish turli oʻquv fanlari boʻyicha pedagogik dastur vositalarini yaratishdan iborat boʻlib qoladi. Biroq mavjud va ishlab chiqilayotgan kompyuter texnikasidan bazasidan pedagogik dastur va vositalari oʻqitish nuqtai nazaridan taʼlim sifatida muhim siljishlarga olib kelishi mumkin emas. Buning sabablaridan biri kompyuter texnologiyalarini anʼanaviy tashkil etilgan oʻqitish jarayoniga joriy etila boshlaganligida boʻlib, oʻz mazmuni va metodi boʻyicha bu texnologiya aniq maqsadga yoʻnaltirilmagan. Shu munosabat bilan iqtisodiy taʼlim tizimiga axborot

texnologiyalarini joriy qilish muammo va istiqbollari ko'rib chiqish favqulotda muhimdir.

Innovatsiya texnologiyalari o'qitish jarayonida yuqori malakali, raqobatbardosh o'qituvchi kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy omilkorliklarini shakllantirish, metodik mahoratini ko'tarish, o'qituvchi pedagoglarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish omili bo'lib qolmoqda.

Iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi bir treninglar (texnologiyalarga) tavsifnoma berib o'tamiz:

«Blits-o'yin» metodi – harakatlar ketma-tkeligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganilayotgan predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini atnlab olishni o'rgatishga qaratilgan.

«Intervyu» metodi – o'quvchi-talabalarga savol berish, eshita olish, to'g'ri javob berish, savolni to'g'ri tuzishga qaratilgan.

«Iyerarxiya» metodi – oddiydan-murakkabga, murakkabdan oddiyga o'tish usullarini qo'llash orqali ularni mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashga o'rgatishga qaratilgan.

«Talaba» treningi – o'quvchi-talabalar bilan ishlash o'qituvchi va talaba o'rtasidagi to'siqni yo'q qilish, hamkorlikda ishlash yo'llarini yaratishga qaratilgan.

«O'qituvchi shaxsi» treningi – o'qituvchining innovatsion faoliyatini ochib beruvchi «O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar» mavzusidagi mustaqil fikrlashga, ijodiy insho yozish orqali fikrlarni bayon qilishga qaratilgan.

«Muloqot» texnikasi – o'qituvchilarni auditoriya diqqatini o'ziga jalb etish, dars jarayonida hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga, uni tashkil etishga o'rgatishga qaratilgan.

«Boshqaruv» texnikasi – o'qituvchilarni auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda o'quvchi-talabalarni ish jarayonida boshqarish usullari bilan tanishtiruvchi va shunga o'rgatishga qaratilgan.

Men o'ylaymanki har bir darsni turli metodlar yordamida olib borsak darslar ham qiziqarli ham talabalarga tushanarli bo'ladi Dars o'tish uchun metod

tanlash ko'zlangan maqsad, qo'yilgan vazifalarga, ma'lum bir metodning imkoniyatlari va boshqa qator omillarga ko'ra belgilangan mezonlar asosida amalga oshiriladi. O'qituvchi barcha omillarni hisobga olgan holda mavjud mezonlar yordamida dars o'tish metodini tanlashi lozim.

Xulosa qilib aytganda, bugungi yoshlarimizni iqtisodiy tarbiyalangan, ta'lim olgan, iqtisodiy savodxonlik va tayyorgarligi davr talabi darajasida bo'lgan, iqtisodiy tafakkuri va ongi yuksak, barkamol insonlar qilib tarbiyalash muammosiga har tomonlama amaliy va nazariy yordam berish har bir ziyoli fuqaroning burchidir.

2.2. O'quv jarayonida interfaol usullar va ularning texnologik xaritasi

Pedagogik (innovatsion) texnologiyalar, axborat texnologiyalari, interfaol usullar umuman darslarni noan'anaviy tarzda olib borish bularning barchasi darsda talabalarni qiziqtirish, faol qatnashish, mulohaza qilishga, o'z fikrlari ayta olishga o'rgatadi. Shu o'rinda men interfaol dars o'tish usuliga to'xtalib o'tmoqchiman.

«Interfaol metodlar - o'zaro fikr almashishga, o'zaro fikrlarni to'ldirishga, goh noverbal, goho verbal ta'sir o'tkazishga qaratilgan harakatlar majmuasidir. Interfaol metodlarni qo'llashda o'zaro ta'sir asosiga qurilgan intellektual harakatlar shunchaki ta'sir yoki turtki vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmaydi va hamkorlik sub'ektlarini ijodiy izlanishga yo'naltirish, noma'lum holatni ochishga(kashf etishga) ko'mak beruvchi nazariy-aqliy mulohazalarni yaratish funksiyalarini ham bajarishi mumkin.

Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim manbai, didaktik vazifalarga muvofiq va munosib ravishda quyidagi interfaol metodlar qo'llaniladi:

- o'qitishning ko'rgazmali metodi;
- mustaqil ishlar metodi;
- muammoli-evristik modellashtirish metodi;
- ilmiy tadqiqot metodlari;

- o'qitishning muammoli-izlanishli va reproduktiv metodlari;
- o'qitishning induktiv va deduktiv metodlari;
- o'qitishning nazorat va o'zini o'zi nazorat qilish metodlari»¹.

Interfaol metodlar asosida tuzilgan dars tizimlarida turli strategiyalardan foydalaniladi. Bunda talabalarga yashirincha usullardan (kitob, konspektlar va h.k.) foydalanish taqiqlanmaydi, aksincha bunday usullarni qo'llash rag'batlantiriladi.

Talabalarining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, muammolarni hal qilishda tayyor standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qilishga undash, talabalar ichki hissiyotlarini yuzaga chiqarib, ularni mantiqiy fikrlashga chorlash, ularni solishtirish, xususiy analitik fikr yuritishga o'rgatish, ularning intellektual, zukkolik hislatlarini shakllantirish va ma'lum yo'nalishda yanada yuqori darajada rivojlantirish maqsadida muammoli uslubdan foydalaniladi.

Muammoli vaziyat qanday hosil qilinadi? Buning uchun bajarilishi lozim bo'lgan topshiriq e'lon qilinadi. Endi shu vazifani bajarish uchun talaba bor bilim va ko'nikmalarini eslaydi, topshiriqni bajarishda shu paytgacha egallagan bilimlarining yetishmasligini sezish bilan birga talaba shaxsida ma'lum psixologik qarama-qarshilik shaklidagi holat yuz beradi. Galdagi muammo topshiriqni bajarish va shu topshiriqni bajarish uchun yangi bilim, iqtidor va ko'nikmalarni izlash muammosi paydo bo'ladi. Ana shu vaziyat esa muammoli tahsilning boshlanish jarayoni hisoblanadi.

Pedagog talabalarining topshiriqni mustaqil bajarish jarayonini zukkolik bilan boshqaradi, e'tibor bilan kuzatadi, kerak bo'lganda jonli muloqotga chorlaydi. Talabalar mantiqiy fikrlash davomida ularning jonli mushohadasi, fikr doirasi pedagog tomonidan izchillik bilan hisobga olinadi va tahsil oxirida faol talabalarga qo'yilgan ballar yoki baholarni e'lon qiladi.

Talabalarda umumlashgan psixologik va uslubiy bilim, iqtidor va ko'nikmalarni shakllantirish, o'z tajribalarini tanqidiy nuqtai nazardan yanada mustahkamlash,

¹ Ziyomuhamedov. B. "Pedagogik texnologiya" Toshkent : "Turon-Iqbol" 2006 yil 88 bet.

real haqiqiy amaliyotdagi sharoitda sinash va amaliy ko'nikmalarni yangi bilimlar bilan yanada boyitish maqsadida shu uslubdan foydalaniladi.

Ma'lumki, har qanday fan o'qitilishi uchun belgilangan maqsadga ko'ra, uning mazmuni tanlanadi. Uni o'zlashtirish uchun unga mos metodlar tanlanadi. So'ngra o'quv vositalari va nihoyat, bularga mos ravishda o'qitish shakli tanlanadi.

Talabalarning psixologik tayyorgarliklari va fikrlash yoki olingan bilimlarni o'zlashtirish darajalariga qarab har bir ta'lim bosqichi uchun mos mazmun va metodlar tanlanadi. Har bir bosqichning o'ziga xos mazmunini bayon qilish mantiqi va metodlari bor. Ta'limda har doim mazmun va metodlar muammosi mavjud, bu muammolar bir-biri bilan uzviy bog'langan. Ta'lim metodlaridagi muammolar «Kimni qanday o'qitamiz?» degan savol bilan bog'liq bo'lib, bundan ta'lim metodlarini ishlab chiqish uning mazmuniga bog'liq ekanligi kelib chiqadi. Bu ikki muammo o'zaro qarama-qarshilikda bo'lib, bir-birini to'ldirib boradi.

O'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, o'qitishning texnik vositalarini, eng asosiysi, talabaning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, talabani ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olish katta ahamiyatga egadir. Chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har-bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Bunday texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metodlarni bilishi kerak bo'ladi. Har bir darsning rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq. Darsning

texnologik xaritasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish, bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi va ixtiyoriga bog'liq. Texnologik xarita qanday tuzilgan bo'lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo'lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bulishi kerak. Texnologik xaritaning tuzilishi o'qituvchini darsning kengaytirilgan konspektini yozishdan xolos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining barcha qirralari o'z aksini topadi.

Quyida biz «Pedagogika» fanidan «Ta'lim metodlari» mavzusi bo'yicha o'tkaziladigan darsning oldindan loyihalashtirilgan texnologik xaritasini sizga havola qilamiz.

TEXNOLOGIK XARITA

Mavzu	Ta'lim metodlari
Maqsad va vazifalar	Talabalarga ta'lim metodlari haqida tushuncha berish. Mavzuga doir tarqatma materiallar talabalar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirishlari hamda suhbat-munozara orqali tarqatma materiallarda keltirilgan ma'lumotlarni qay darajada o'zlashtirilganligini nazoat qilish, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, baholash.
O'quv jarayonining mazmuni	Ta'lim metodlari: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, reproduktiv va muammoli - izlanish, induktiv, deduktiv, o'quvchilarni rag'batlantirish va tanbeh berish, nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari, ta'lim metodlarining qo'llanilishi va ularni tanlash.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi.	Og'zaki bayon qilish, suhbat, munozara. «Loyiha» texnologiyasi. Amaliy mashg'ulot. Kichik guruhlarda ishlash. Vosita: Tarqatma materiallar, doska. Usul: Tayyor yozma materiallar asosida. Nazorat: Savol-javob, kuzatish. Baholash: Rag'batlantirish. Reyting tizimi.
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: Bir vaqtning o'zida ko'pchilik talabalar baholanadi. Mavzu qisqa vaqt ichida barcha talabalar tomonidan o'zlashtiriladi. Talabalar faolligini oshiradi va qiziqishini kuchaytiradi. O'z maqsadiga erishadi. Talaba: Yangi bilimlarni o'zlashtiradi. Yakka va guruh holidi ishlashni o'rganadi. Nutqi rivojlanadi, xotirasi mustahkamlanadi. Qisqa vaqt ichida ko'p fikrga ega bo'ladi va o'zini nazorat qiladi.

Texnologik xaritada ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar faoliyati (o'quv jarayoni) bosqichlarining ketma-ketligi va mazmuni hamda ularda qo'llaniladigan vositalar tavsiflanadi. Texnologik xarita bo'lajak mutaxassislarining mustaqil ishlashiga va ta'lim jarayonini nazorat qilishga yordam beradi.

Men bitiruv oldi amaliyotim davomida darslarni bir qancha texnologiyalardan foydalanib olib borishga harakat qildim va men bundan shunday xulosalarga keldim:

Muammoli vazifalar usuli

Muammoli vazifalar usuli-talabalarga muammoli vaziyatlarni va ularning faol bilish faoliyatini tashkil etishga asoslangan usuldir. U aniq vaziyatlarni tahlil qilish, baholash va keyinchalik qaror qabul qilishdan iborat.

Bu usulning asosiy vazifalari:

-o'rgatuvchi: bilimlarni aktuallashtirishga asoslangan; -rivojlantiruvchi: tahliliy tafakkurni, alohida faktlar orqasidagi hodisa va qonuniylikni ko'ra bilishni shakllantirish;

-tarbiyalovchi: kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish.

Muommali vaziyatlarni texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va mazmuni	Faoliyat	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich	Mavzuni, muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsadni va uni baholash mezonini shakllantiradi. Qo'yilgan texnologik haritani va muammoli vaziyatni talabalar tomonidan yechishni ishlab chiqadi.	
2-bosqich	Muammoli vaziyatni tug'diradi, muammoni bayon qiladi, talabalarni uni yechishga yo'ntiradi, ularni ish natijalarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.	Guruhlarga bo'linadilar, muammoli vaziyat bilan tanishadilar
3-bosqich Muammoni yechish	Muammoni to'g'ri tushunganligiga ishonch hosil qilish, munozarani faollashtirish	Ushbu muammoni yechishning turli imkoniyatlarini

	kerak bo'lsa, maqsadga yo'naltirish uchun bir guruhdan ikkinchisiga o'tadi. Talabalarga majmuaviy muammoni turlicha ko'rib chiqish mumkinligini tushunishlariga imkon beradi.	muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar, eng qulaylarini topadilar, bir fikrga keladilar
4-bosqich Natijalarni taqdim etish	Diqqat bilan tinglaydi, oddiy qatnashchi sifatida savollar beradi.	Natijalarni habar qiladilar, boshqa guruhlar taklif qilgan variantlarni tahlil qiladilar.
5-bosqich Umumlashtirish va yakun yasash	Qisqacha va bahosiz taklif qilinga muammoni yechish usul va yo'llarining eng asosiylarini sanab o'tadi, ayniqsa, ko'pchilik fikriga mos kelganlarini alohida ta'kidlaydi. Muammoni to'liq yechish darajasini butunligicha va talabalarning harakatlar strategiyasi bo'yicha baholaydi ..	Eng qulay vaziyatni aniqlaydilar. Guruh o'zini-o'zi baholashlari mumkin

Bu usulda darsni olib borish ayniqsa kasb hunar kollej talabalariga juda ham samarali deb o'ylayman. Chunki ularga baxs munozaralar qilishga o'z fikrini ayta olishga turli hildagi muammoli vaziyatlardan ham oson yo'llar bilan chiqib ketishga o'rgatadi.

Individual (amaliy) usul

Individual usulda ko'pgina, talabalar faoliyatida olingan bilimlarni amaliy vazifani yechishga qaratadilar. Nazariyotni amalda tatbiq qila bilish birinchi o'ringa chiqadi. Ushbu usul bilimni, mahoratni chukurlashtirish vazifasini bajaradi, shuningdek, o'rganish faoliyatini kuchaytirishni ta'minlaydi. Amaliy usul talabalarni vazifalarni vijdonan bajarishga, mehnat jarayonini puxta tashkil etishga boshqa usullardan ko'ra ko'prok ko'maklashadi.

Individual (amaliy) usulning texnologik haritasi

Ish bosqichi va mazmuni	Faoliyat	
	O'qituvchi	Talaba

1-bosqich	Ish maqsadi va vazifasini aniqlaydi. Uning texnologik haritasini tuzadi. Vazifani va uni bajarishni baholash mezonini, jumladan: ishni to'g'ri bajarilishi va sifatini, tezligini, mehnatini tashkil eta bilish qobiliyatini va h. k. shakllantiradi.	
2-bosqich Ishni nazariy tushunib yetish	Talabalarni oldida turgan ish maqsadini anglashga motivatsiyalaydi, vazifani, uni bajari sh shartlarini tahlil qiladi.	Ish bajarish rejasi va jadvalini tuzadilar. Material va qurollarni tayyorlaydilar.
3-bosqich Ko'rsatma berish	Ishni bajarish usullarini texnologik xaritasini mos ravishda ko'rsatadi	
4-bosqich Sinab ko'rish	Agar ish jarayonida xatoga yo'l qo'yilsa, mulohaza bildiradi.	2-3 talaba o'qituvchi boshchiligida ish bajaradilar, qolganlari esa kuzatib turadilar.
5-bosqich Ishni bajarish	Vazifani yomon bajarayotganlarga diqqatni jalb etadi va ularga yordamlashadi	Vazifani mustaqil bajaradilar.

Bu usul boshqa usullardan farqli o'laroq talabalarni o'z ustilarida ishlashga nazariyada o'rgangan bilimlarini amaliyotda qo'lay olishga o'rgatadi. Men o'z darslarimda bu usuldan ham foydalandim. Bunda har bir talabaga imkoniyat yaratib ular kelajakda kim bo'lmoqchi, nima uchun shu kasbni tanlayapti va shu kasbi orqali nimalar qilmoqchi shular to'g'risida suhbatlar olib bordik.

Men o'ylaymanki darslarni turli metodlarda olib borish darsdan ko'zlangan maqsadga erishish uchun juda katta hizmat qiladi.

Munozara (muhokama) usuli

Munozara-faol ta'lim usuli bo'lib, muhokama ma'lum muammo bo'yicha fikr almashuv ko'rinishida o'tadi.

Munozara barcha vazifalarni bajaradi. Mazkur usuldan quyidagi maqsadlar uchun foydalanamiz:

- yangi bilimlarni shakllantirish;
- talabalarda u yoki bu savollarni chuqur o‘ylab ko‘rish, tub ma’nosini tushunib yetishga motivatsiyani ta’minlash;
- talabalarga dalil va dalilga asoslangan xulosa orasidagi farqni tushunib yetishni o‘rgatish;
- kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish;
- erkin munozaralarga kirishib ketishni ta’minlash;
- nutq madaniyatini rivojlantirish;
- mantiqan fikrlashga o‘rgatish va h.k.

Ko‘p hollarda seminar mashg‘ulotlari orasida o‘qituvchi monologlari bilan bo‘linadigan talabalar monologlari shaklida o‘tadi, qolgan talabalar esa shu paytda zerikib o‘tiradilar. Shuning uchun darsda «munozara usuli»ni qo‘llash barcha talabalarning faolligini oshirib, zerikishlariga yo‘l qo‘ymaydi. «Munozara» ni o‘tkazish

O‘qituvchi munozara mavzusini tanlaydi va talabalarni taklif qiladi.

O‘qituvchi talabalarga «Aqliy xujum» masalasini beradi va uni o‘tkazish tartibini belgilaydi, talabalar guruhlariga bo‘linadi.

«Aqliy hujum» vaqtida bildirilgan g‘oya va fikrlarni yozib borish uchun kotib tayinlaydilar. Bu bosqichda guruh a‘zolarining har biri o‘z fikrini bildirishlariga sharoit yaratiladi.

Talaba (yetakchi) ikkinchi bosqichga o‘tishdan avval qisqa tanaffus e‘lon qiladi. Ikkinchi bosqichda bildirilgan fikr va g‘oyalarni umumlashtirib, ularni taxlil qilishga o‘tiladi.

Tahlil orqali qo‘yilgan vazifani eng maqbul yechimini topishga harakat qilinadi. O‘qituvchi munozara paytida quyidagi savollarni berishi mumkin:

Siz misol keltira olmaysizmi?

Nahotki! Nima uchun?

Bu fikr Aziz aytgami bilan qanday qilib moslanadi?

Demak, siz Lolaning fikriga qo‘shilasiz?

Siz menga aytmang, Akbarni ishontirishingiz lozim!

Sizning hayolingizga ekanligi to'g'risidagi fikr kelmadimi?

Talabalar fikrlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, unga munosabat bildirishga shoshilmaslik munozara yuritishning qat'iy qoidasi bo'lib hisoblanadi. O'qituvchi fikrlarining bildirilishiga ham yo'l qo'yimasligi lozim.

Odobli xulq bilan fikrlarning asoslilikini, aytilgan yoki qo'llab-quvvatlangan fikrning to'g'riligini oydinlashtirib, ularda g'oyaning mantiqiy oqibati to'g'risida fikrlashga qiziqish uyg'otish zarur.

Munozaraning texnologik haritasi

Ishning mazmunan va boshqichlari	Faoliyat	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich tayyorlov	Munozaraning mavzusini aniqlaydi, uning maqsad va vazifalarini munozara qatnashchilari erishishi kerak bo'lgan natijaga shakl beradi: munozarani maromda ushlab turadigan vazifalar, savollar va oraliq xulosalarni tayyorlaydi.	
2-bosqich	Mavzuni aniqlaydi, tuzilishini, o'z mulohazalarini ma'lum qiladi va ta'lim oluvchilarning o'z nuqtai nazarlarini bayon etishni taklif etadi. Munozara boshlarida savollar berilishi mumkin.	

Munozara usuli ham juda qiziqarli va samarali usul deb o'yladim bu usul asosan talabalarni tanqidiy fikrlashga, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi.

Pinboard usuli

Inglizchadan: pin- mustahkamlash, board-doska.

Bu o'qitish usulning mohiyati shundan iboratki, unda munozara yoki o'quv suxbati amaliy usul bilan bog'lanib ketadi. Uning afzallik funksiyalari rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifadir: talabalarda muloqot yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi, o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi.

Pinbord usulning texnologik haritasi

Ish bosqichlari va tarkibi	Faoliyat	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Tayyorlov	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni ifoda etadi, natija va baholash mezo-larni aniqlaydi. Qiziqtiruvchi (muzokarani) savol va asosiy fikrlarni shakllantiradi.	
2-bosqich. Mavzuni Ishlash	Mavzu tuzilishini aniqlaydi, o'z mulohazalarini bildiradi va talabalarga o'z nuqtai nazarlarini bayon etishni taklif etadi. «Pinbord» usulini tushuntiradi. Munozara boshlanishini tezlashtirish uchun bir nechta tayyorlangan savollarni berish mumkin.	Munozara vaqtida mavzuni ishlab chiqadilar.
3-bosqich. O'z xulosalarini yozma bayon etish	Kuzatadi.	Munozara davomida shakllangan fikrlarni asosiy xulosalar ko'rinishida qog'oz varag'i yoki kartochkaga yozib doskaga ilib qo'yadilar.
4-bosqich. Umumlashtir ish	Maslahat va tavsiya orqali majbur qilmasdan ko'maklashadi.	O'quv guruhining 2-3 a'zosi o'rtoqlari bilan maslahatlashgan holda mazmuniga qarab ma'lumotni tartiblaydilar va guruhlariga bo'ladilar.

Men o'ylaymanki talabalarni darsga faol qatnashishlari eng avvalo o'qituvchining mahoratiga bog'liq chunki har bir usulni qo'llashning qonun

qoidasi o'tkazilish tartibi bor. Har qanday texnologiyani qo'llashdan oldin bu texnologiya shu mavzuga to'g'ri keladimi mavzuni ochib beradimi deb ishlab chiqish kerak. Yana darslarda mavzudan kelib chiqqan holda har xil metodlarni qo'llash kerak ekan deb o'ylayman. Chunki talabalar bir xillikdan zerikadi. Eng asosiysi talabalarni ham aktivlashtirish va o'z ustilarida ishlashga o'rgatish.

III BOB. IQTISODIY TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

3.1. Iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalarni tadbqiq etish bo'yicha amaliy tadqiqotni tashkil etish

Men bitiruv oldi amaliyotimni Samarqand Iqtisodiyot kollejida o'tadim. Manashu ikki yarim oylik amaliyotim davomida bir qancha malakali pedagoglarning darslarini kuzatdim. O'zim mustaqil darslar o'tdim. Mustaqil darslarim davomida turli metodlardan foydalandim. Darslarimdan biri II-bosqich ML-11 guruhga iqtisodiyot nazariyasi fanidan "DAVLATNING IQTISODIYOTGA ARALASHUVI" mavzusida guruhga T-sxemasidan foydalanib dars o'tdim.

Bu guruhdagi 30ta talabadan 29 ta talaba qatnashayapti 1ta talaba sababli qatnasha olmayapti va Bank ishi bo'limining iqtisodiyot nazariyasi fanidan o'qituvchi Baboyev Dilshod va amaliyot rahbarim Buxgalteriya hisobi va audit bo'limining kafedra mudiri Yorbekova Dilorom o'qituvchilar kuzatuvchi sifatida qatnashdilar.

Dastlab darsga kirishim bilan tashkiliy qismga 5 daqiqa vaqt ajratdim va men bu vaqt ichida talabalarning joylarini egallaganliklariga, xonaning tozaligiga, yorug'ligiga, darsga tayyorligiga etibor qildim va jurnalni olib talabalarni yuqlama qilib chiqdim.

So'ngra uyga berilgan topshiriqlarni so'rab 15 daqiqa vaqt ichida talabalar bilimini baholab oldim va men buni hozircha qog'ozga yozib qo'ydim va dars davomida ular aktiv qatnashsalar yana ballarini ko'tarishlari mumkinligini aytib o'tdim.

Talabalarni baholab bo'lgandan so'ng yangi mavzuni ya'ni "Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi". Men 20 daqiqa vaqt ichida yangi mavzuni yoritib berdim. Mavzuni tushuntirib berishim mobaynida bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning tutgan o'rnini ochib berdim. Makrodarajada tartibga solishning ikki mexanizmining asosiy xususiyatlari ya'ni davlat va bozor mexanizmlarni tushintirdim va aynan shu xususiyatlarni talabalarga yanada jonli tarzda tushuntirish uchun T-sxemasidan foydalandim. Buning uchun avvaldan uyda tarqatma material tayyorlab keldim. Bu quyidagi ko'rinishda edi.

Makrodarajada tartibga solishning ikki mexanizmining asosiy xususiyatlari

Bozor mexanizmi – o'z-o'zini tartiblash	Davlat mexanizmi – davlat tomonidan tartiblash
Bozor tovarlar ishlab chiqarligandan so'ng ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatadi. Bozorning individual, alohida sub'ektlari o'zlari manfaatdor bo'lmagan makroiqtisodiy struktura o'zgarishlarini amalga oshirmaydilar. Bozor sub'ektlari o'z kapitallarini foyda keltirmaydigan samarasiz ishlab chiqarishga qo'ymaydilar. Bozor o'zgaruvchan haridor talabiga tezda moslashadi Ishlab chiqarish (nima, qanday, qancha, kim uchun) yechimlari mikrodarajadafirma, uy xo'jaliklari miqyosida qabul qilinadi. Boshqarish gorizontal (sharikchilik) asosida, firmalar va uy xo'jaliklari o'rtasidagi aloqalar asosida tashkil etiladi. Xo'jalik aloqalarini tartibga solish faqat shartnoma va manfaatlarga asoslanadi	

Men tarqatma materialni uyda tayyorlagan vaqtimda bozor mexanizmiga o'zim javob yozib keldim ulardan esa Davlat mexanizmini bozor mexanizmiga qiyosiy taqqoslama javoblarni yozishlarni topshiriq qilib berdim. Taqatma materialni tarqatish va texnologiya haqida tushuncha berishga 5 daqiqa ajratdim va ularga bu tarqatma materialdagi jadvallarni tuldirib berishlari uchun 10 daqiqa vaqt berdim. 10 daqiqadan so'ng talabalardan tarqatma materiallarni yeg'ib oldim va ularni talabalar bilan tahlil qildik. Talabalar bilan tahlil qilib talabalarni baholash uchun 15 daqiqa vaqt ajratdim. Guruhning 70% i xatosiz to'liq shaklda to'g'ri javob berishdi va eng to'g'ri ko'rinish quyidagicha edi.

Makrodarajada tartibga solishning ikki mexanizmining asosiy xususiyatlari

Bozor mexanizmi – o'z-o'zini tartiblash	Davlat mexanizmi – davlat tomonidan tartiblash
Bozor tovarlar ishlab chiqarligandan so'ng ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatadi.	Davlat ishlab chiqarish boshlanganga qadar ta'sir ko'rsatishi mumkin
Bozorning individual, alohida sub'ektlari o'zlari manfaatdor bo'lmagan makroiqtisodiy struktura o'zgarishlarini amalga oshirmaydilar.	Davlat yirik masshtabdagi struktura siljishlari, o'zgarishlarini amalga oshirishga qodir.
Bozor sub'ektlari o'z kapitallarini foyda keltirmaydigan samarasiz ishlab chiqarishga qo'ymaydilar.	Davlat byudjet yordamida iqtisodiyotning notijorat sektorini samarasiz, lekin jamiyat uchun zarur korxonalarni qo'llab-quvvatlaydi.
Bozor o'zgaruvchan haridor talabiga tezda moslashadi	Davlat iste'molchi talabining o'zgarishini ancha kech ilg'aydi. Makrodarajadagi qarorlar umummilliy manfaatlarni ko'zlagan holda qabul qilinadi.
Ishlab chiqarish (nima, qanday, qancha, kim uchun) yechimlari mikrodarajada firma, uy xo'jaliklari miqyosida qabul qilinadi.	Milliy xo'jalikni boshqarish vertikal asosida tashkil etiladi (yuqoridan pastga, davlatdan firma, uy xo'jaligiga)
Boshqarish gorizontal (sherikchilik) asosida, firmalar va uy xo'jaliklari o'rtasidagi aloqalar asosida tashkil etiladi. Xo'jalik aloqalarini tartibga solish faqat shartnoma va manfaatlarga asoslanadi.	Leraxik (quyi bug'inni yuqoriga bo'ysinishi tartibida) aloqalar ko'pincha iqtisodiy majbur qilishga asoslanadi (soliqlar, bojxirojlar)

18% i esa yaxshi bahoga (4 baho) javob berishdi faqat 10%i qoniqarli javab berishdi. Javoblarni qabul qilib tahlil qilib bo'lganimizdan so'ng men umulashtiruvchi xulosalar berib tushuntirishlar berdim bunga esa 5 daqiqa vaqt ajratdim. Darsning yakuniy qismiga 5 daqiqa ajratdim bunda keyingi darsda o'tadigan darsimizni e'lon qildim va uyga vazifalarni berdim.

Amaliy mashg'ulotning texnologik haritasi

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	o'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusini, maqsadini, o'tkazish tartibini e'lon qiladi. 1.2. Javoblarni aniqlashtiradi, xatolarni to'g'rilaydi, xulosalaydi. 1.3. Mavzu bo'yicha tayanch iboralar va amaliy mashg'ulot mavzusi, rejasiga izoh beriladi (1-Ilova). 1.4. Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi.	Tinglaydi. Savollarga javob beradi.
2-bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa)	2.1. texnologiya asosida organayzerlarda ishlab chiqishni tashkil etadi (2-Ilova). 2.2.O'qituvchi talabalarga murojaat qiladi va eng to'g'ri javoblar hamda fikrlarni qayd qiladi. 2.3. Talabalarni guruxlarga bo'lish orqali amaliy mashg'ulotni tashkil etadi. 2.4O'qituvchi talabalarga murojaat qiladi va eng to'g'ri javoblar hamda fikrlarni qayd qiladi.	Topshiriqni bajarishda "Loyiha" ketma-ketligini tuzadi va organayzerlarni to'ldiradi. Kichik guruhga bo'linib birgalikda aniq qo'yilgan masalani, ma'lum belgilangan vaqt ichida o'zaro fikr almashish, muloqot qilish orqali yechishadi
3-bosqich. Yakuniy bosqich (10daqiqa)	3.1. Mavzuda qo'yilgan savollar va ularning yoritilganiga o'qituvchi yakun yasaydi (xulosa qiladi), aytilmagan tomonlari ustida ishlash lozimligini aytadi. 3.2.Guruhlarga o'zaro baholash natijalarini e'lon qiladi.	Tinglaydi, yozadi va mustaqil ishlash uchun topshiriqqa tayyorlanadi.

	3.5. O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar beriladi. Kelgusi mavzu e‘lon qilinadi va seminarga tayyorlanib kelishni aytadi (4-Ilova).	
--	--	--

Talabalar bilimini baholash mezonlari

Ma‘ruza darsinning reytingi

86-100% - 2 ball (a‘lo)

75-85% - 1,7 ball (yaxshi)

55-70% - 1,4 ball (qoniqarli)

Umuman olganda Iqtisodiy fanlarni o‘qitish jarayonida pedagogik texnologiyalarni tadbiq etishda amaliy tadqiqotni tashkil etish bo‘yicha quyidagi nazariy ma’lumaotlarni ham berib o‘tishimiz mumkin.

FSMU jadvali

Ne‘matlar narxi tushganda byudjet chizig‘ini siljitish zarurmi?

F (Fikringizni bayon eting).
S (Fikringiz bayoniga biror sabab ko‘rsating).
M (Ko‘rsatilgan sababga tushuntiruvchi misol keltiring).
U (Fikringizni umumlashtiring).



1. Iste‘molchining individual tanloviga ta‘sir ko‘rsatadigan ob‘ektiv va sub‘ektiv sabablar qaysilar ?

Quyidagi jadvalni to‘ldiring:

<i>Sub‘ektiv sabablarni keltiring</i>	<i>Ob‘ektiv sabablarni izoxlang</i>

2. Real daromadning o'sishiga olib keladigan omillar nimalar?
3. Narx o'zgarishining talab qilingan tovar va xizmatlar miqdoriga ta'sirini necha qismga ajratish mumkin?

«Venn» diagrammasi



1. Daromad va almashtirish samarasi miqdorini ko'rsating. Narxlar va iste'molchilarning daromadi o'zgarganda byudjet chizig'ining siljishi yoki siljimaslik shartini keltiring. Ushbu savol yuzasidan quyidagi T-sxema jadvalini to'ldiring

T-sxema

Personalni boshqarish uslublari

<i>O'zgarishlar</i>	<i>Byudjet chizig'i o'ngga siljiydi</i>	<i>Byudjet chizig'i chapga siljiydi</i>
<i>Tovarlar narxi pasayganda</i>		
<i>Tovarlar narxi ko'tarilganda</i>		
<i>Iste'molchining daromadi oshganda</i>		

2. Real daromadning o'sishi deganda nimani tushunasiz?.

3. Umumiy samara qanday aniqlanadi?

“Narx-iste'mol” chizig'i qanday qilib talab chizig'ini berishini izoxlang

Fikringizni sxema asosida tushuntiring.

Talabalarning darsga qatnashganliklariga va javoblariga qarab baholab chiqsam

Guruh ishlarini baholash jadvali

Guruhlar	Javobning to'raligi, aniqligi, tushunar liligi (1,0)	Ko'rgazma liligi (0,5)	Guruh ishtirokchilarining faolligi (0,5)	Ballarning umumiy hajmi	Bahosi
1-guruh. Sadiqova A.,	1,0	0,5	0,5	2	5

Jamalova N.,	0,8	0,5	0,4	1,7	4
Qayumov O.,	0,9	0,4	0,5	1,8	5
Oripov H., ...	1,0	0,4	0,5	1,9	5
2-guruh.					
Davlatov B.,	1,0	0,5	0,5	2	5
Esonov D.,	0,7	0,4	0,4	1,5	4
Baboyeva Z.,	0,9	0,5	0,5	1,9	5
Axtamova M.,	0,9	0,5	0,5	1,9	5
..					
3-guruh.					
Sattarov A.,	0,8	0,5	0,5	1,8	5
G'ozbekova N	0,9	0,4	0,4	1,7	4
Dadajonov SH	0,7	0,4	0,5	1,6	4
...					

Har bir guruh ikkinchi guruh taqdimotini baholash mezonlarini ballarni qo'shish orqali baholaydi. Guruh olgan baho har bir guruh ishtirokchisining bahosi hisoblanadi:

Guruh natijalarini baholash kriteriyalari¹

Kriteriyalar	Ballarda	Foizda	Natijalar bahosi		
			1-guruh	2-guruh	3-guruh
Ma'lumotlar to'liqligi	0.8	40	0,8	0,7	0,4
Chiziqli tasavvur etish (illyustratsiya)	0.6	30	0,5	0,6	0,7
Guruh faolligi (talabalar soni)	0.3	15	0,4	0,4	0,3
Savolni tushunishi	0.3	15	0,3	0,3	0,3
Ballar yig'indisi	2	100	2	2	1,7

Bu metodlarni qo'llash orqali talabalar bilimini nazorat qilishga kelsak. Bu metodlarni qo'llashda asosan talabalarining individual fikri e'tiborga olinadi. Individual tarzda baholanadi. Bunda vaqt yetishmovchiligini ham e'tiborga

¹ Suyunov O. J. "Yangi pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" o'quv uslubiy qo'llanma Samarqand-2011.

olishimiz kerak. Qanday baholanishini yuqorida metodni qo'llashda ko'rsatib o'tdik.

Dars jarayonida talabalarni baholash ko'rsatkichlari quyidagicha:

Yuqori ball olgan talabalar 70 %.

O'rtacha ball olgan talabalar 18 %.

Qoniqarli ball olgan talabalar 10 %.


Darsda faollik darajasi sust talabalar 2 %ni tashkil qildi.

Bundan ko'rinib turibdiki, har bir metodni qo'llashning o'ziga xos jihatlari mavjud. Iqtisodiy fanlarni o'rganishda tadbiq qilinadigan metodlar orasida fanlarning xususiyatidan kelib chiqib, o'rganilayotgan mavzularga moslashtirilgan holda qo'llaniladigan metodlarni ko'rib chiqdik.

Ular orasida iqtisodiy fikrlashni muvofiq ravishda bildirilgan fikrlarning eng maqbulini tanlash va tavsiyalar ishlab chiqishni o'rgatishga qaratilgan tahliliy ijodiy vazifalarni guruh bo'lib yechish metodi, matnning mazmunini tadqiq qilish, taqqoslash, shaxsiy tajriba bilan bog'lash va o'z munosabatini bildirishni o'rgatadigan tanqidiy nazar metodi, axborotlarni kuzatishni ma'lum bir maydon – jadval va grafiklar orqali ifodalash va ular orqali g'oyalar, tavsiyalar, takliflar berishga o'rgatadigan sematik (ma'nosini ifodalash) xususiyatlar tahlili metod iva boshqalar muhim o'rin tutadi.

Dars jarayonida bu metodlarni qo'llashning qanday belgilanishini ko'rib chiqamiz. Masalan, amaliyot darsini ushbu metodni qo'llab o'tilganda, eng yuqori ball 100 bo'lsin. Amaliy mashg'ulotda maksimal 2 ball berish ko'zda tutilgan bo'lsa, demak 10 ball olgan talabaga jurnalga 2 bal, 9 ball olganda esa 1,8 ball, o'yinda 7 ball olganda 1,4 ball, agar maksimal ball 5 bo'lsa, 9-10 ball 7-8 ball bo'lgani va hokazo tarzda moslashtirib baho qo'yib chiqamiz.

Bundan kelib chiqib darsni shunday tahlil qilamiz: Guruhda talabalar sonini 100 % deb oladigan bo'lsak, bu metodlarni qo'llash orqali talabalar ushbu mavzuni o'zlashtirish darajasini ushbu diagrammada aks ettiramiz.



Bunda:

- 70 %** - darsda eng yuqori ball olgan talabalar soni. Darsda ularning mavzuni o‘zlashtirish darajasi ham juda yuqori bo‘lgan talabalar;
- 18 %** - darsda o‘rtacha ball olgan talabalar soni;
- 10 %** - darsda qoniqarli baho olgan talabalar soni
- 2 %** - o‘zlashtirish darajasi sust bo‘lgan talabalar soni.

Bundan ko‘rinib turibdiki, ushbu metodni qo‘llash orqali guruhda deyarli 88 % talaba baholandi.

Bu metodlarni o‘rganish va ularni dars jarayonida qo‘llashdan maqsad bulg‘usi iqtisodchilarni o‘z tanlagan kasbini bilimdoni, yetuk iqtisodchi mutaxassis kadrlar qilib tayyorlashdir.

Zero, bu tayyorlanayotgan yosh kadrlar mamlakatimizni jahon miqyosiga ko‘taradigan bilimli, zukko, har bir vaziyatni to‘g‘ri baholay oladigan yoshlar bo‘lib yetishsin.

3.2. Kasb-hunar kollejida xavfsiz ish sharoitini tashkil etish holati va majburiyatlari

Tashkilotlarda, o'quv bilim yurtlarida va shuningdek kasb-xunar kollejlarda ham xavfsizlikni ta'minlash va ish sharoitini yaxshilash ma'muriyatning asosiy vazifasi sifatida mehnat qonunlari kodeksiga yozib qo'yilgan.

Ma'muriyat tarkibiga rahbar xodimlar, ya'ni kasb-xunar kollejlarda, tashkilotchilik, ma'muriy-xo'jalik ishlarini amalga oshiruvchi, o'quv jarayonlarni tashkil qiluvchi, kollejda mehnat qilayotgan xodimlarni boshqaruvchi, moddiy mablag'larni taqsimot bilan ishlatish va uni nazorat qilish ishlarini olib boruvchi shaxslar kiritiladi.

Ma'muriyat xodimlariga qo'yiladigan asosiy talab, ular davlat siyosatini yaxshi tushunishlari va uni amalga oshirishga harakat qilishlari, davlat va xalq manfaatlarini tushunib amalga oshirishlari, mehnat sharoiti tartibini saqlay bilishlari, ishchilarni mehnat intizomini saqlash va ishga rag'batlantirish, talim sifatini oshirishi va darajasini bir necha o'n yil oldindan ko'ra biluvchi shaxs bo'lishlari kerak.

Ma'muriyat zimmasiga yuklatiladigan majburiyatlar asosan ishchilar bilan ma'muriyat o'rtasida tuziladigan mehnat bitimidan kelib chiqadi. Bu mehnat bitimini tuzish majburiyatini O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi bilan belgilangan. Bu qonuniyat sifatida quyidagicha taqlid qilinadi. Ishchi ma'lum mutaxassislik bo'yicha belgilangan ishni korxona ichki tartib-qoidalariga rioya qilgan holda bajarish, ma'muriyat esa mehnat qilish qonuniyatlariga asosan va jamoat bitimida ko'zda tutilgan ma'lum miqdordagi majburiyatlar mundarijasini o'z zimmasiga oladi.

Mehnat Kodeksida ko'zda tutilgan majburiyatlar quyidagilar:

Har bir xodim va ukituvchi uchun uz mutaxassisligi va malakasiga qarab ma'lum bir o'quv xonasi, ish stoli va boshqalardan iborat ish joyi tashkil qilish, sog'lom va xavfsiz ish sharoitini tashkil qilish, sifatli o'quv jixozlari bilan ta'minlash va mehnat intizomini, har taraflama mustahkamlash, ish sharoitini

kundan-kunga yaxshilab borishni ta'minlashga qaratilgan texnik jihozlar o'rnatish, shuningdek mehnatni muhofaza qilishning nomenklatura chora-tadbirlarini amalga oshirish.

Bundan tashqari, rahbar xodimlarga xizmat vazifalari ham yuklanadi. Bu vazifalar boshqarishi lozim bo'lgan lavozimi taqozo qiladigan tavsiyanomada belgilangan bo'ladi.

Kollejlarda mehnatning sog'lom va xavfsiz sharoitlarini ta'minlash 13-moddada keltirilgan.

Kollejdagi har bir ish joyidagi mehnat sharoiti mehnatini muhofaza qilish standartlari, qoida va me'yorlari talabalariga muvofiq bo'lishi lozim.

Kollejda mehnatning sog'lom va xavfsiz sharoitlarini ta'minlash, ishlab chiqarishning xavfli va zararli omillari ustidan nazorat o'rnatilishini tashkil etish va nazoratning natijalari to'g'risida mehnat jamoalarini o'z vaqtida xabardor qilish ma'muriyat zimmasiga yuklanadi.

Kollejda mehnatning sog'lom va xavfsiz sharoitlarini ta'minlash yuzasidan ma'muriyat bilan xodimlarning o'zaro majburiyatlari jamoa shartnomasi yoki bitimida ko'zda tutiladi.

Intizom javobgarligi. Har bir o'quv yurti o'z ichki tartib-qoidalarini ishlab chiqadi. Bu tartib-qoidalarning barchasi sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlash, jarayonlarni normada bajarishga qaratilgan.

Talablarni bajarmaslik baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ishchi-xizmatchilarning tartib-qoidalariga amal qilmasligi ish rejimining buzilishiga, kassalik, baxtsiz hodisa, zaharlanish va boshqa hodisalarning sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin. Ular uchun intizom javobgarligi ta'sis etilgan.

Bu javobgarlik ishchilar uchun – ogohlantirish, xayfsan e'lon qilish, jiddiy xayfsan e'lon qilish, uch oy muddat bilan oyligi kam bo'lgan ishga o'tkazish yoki shu muddatga past razryad ishga o'tkazish, ishdan bo'shatish kabi tartibda amalga oshiriladi.

Rahbar shaxslar uchun javobgarlik ogohlantirish, xayfsan e'lon qilish, bir yilgacha lavozimini pasaytirish, ishdan bo'shatish yo'li bilan olib boriladi.

Xodimlar bulim rahbarlari, kollej raxbari tomonidan intizom javobgarligiga tortilishi mumkin. Rahbar xodimlar esa yuqori rahbarlik xodimlari tomonidan intizom javobgarligiga tortilishi mumkin.

Rahbar xodimlar jamoa bitimida ko'rsatilgan talablarni, yuqori tashkilot buyruqlarini bajarmaganliklari va asosan xavfsizlik texnikasi, sanoat gigiyena-sanitariyasi talab-qoidalariga amal qilinmaganligi uchun javobgarlikka tortiladilar.

Ma'muriy javobgarlik qo'yidagi uch turda belgilanishi mumkin:

1. Axloqiy harakterdagi javobgarlik (ogohlantirish, jamoat tartibidagi choralar).
2. Mablag' va pul undirish, bunda jarima va musodara qilish usuli qo'llaniladi.
3. Tartib buzuvchining shaxsiga taaluqli bo'lgan javobgarlik (ahloq tuzatish ishlari, ma'muriy – qamoq jazosi, vazifasidan chetlatish).

Mehnat xavfsizligi qoida va normalarini buzgan ishchi va xizmatchilarga ma'muriy javobgarlik tartibida ogohlantirish, jamoat tartibidagi choralar va ma'lum miqdorda jarima to'lash belgilanadi. Jarima va ogohlantirish buysunish tartibida rahbar xodimlar tomonidan emas, balki mehnatni muhofaza qilishning davlat nazorat organlari yoki shahar va tuman deputatlari kengashi ijroiya qo'mitalari tomonidan tashkil qilingan komissiyalarning qarori bilan belgilanadi.

Jinoiy javobgarlik. Mehnatni muhofaza – qilish qoidalarining qo'pol buzilishi natijasida og'ir jarohatlanish yoki bir necha kishining og'ir jarohatlanish sodir bo'lsa yoki baxtsiz hodisa o'lim bilan tugasa, qoidani buzishda ayblangan rahbar hodim jinoiy javobgarlikka tortiladi. Jinoiy javobgarlik rahbar xodimni vazifasidan chetlatish yoki ma'lum muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan belgilanadi.

Chegaralangan moddiy javobgarlikda kollejga yetkazilgan zarar ma'muriyat buyrug'iga asosan ishchi va xizmatchining oyligidan undirib olinadi. Bunda aybdor shaxsning roziligi bilan oyligidan (uchdan biridan oshmasligi sharti bilan) ushlab qolinadi.

To'liq moddiy javobgarlik jinoyat sodir bo'lgan taqdirda va aybdor jinoiy ish qilgan bo'lsa, uni javobgarlikka tortish bilan bir qatorda sanoat korxonasiga keltirilgan moddiy zararni ham to'liq qoplashga majbur qilinadi. Bunday javobgarlik qarorlarini tuman yoki shahar sudi organlari chiqaradi. Bu holda korxona ma'muriyati tomonidan aybdorning haqiqatdan ham aybdor ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar ko'rsatilishi kerak.

Hozirgi zamon fan va texnikasining o'sishi yangidan-yangi texnologiya va mashina – mexanizmlarning joriy etilishi, ishlab chiqarishda ishlayotgan har bir xodimning yuqori malakali, texnika qonunlarini tushunadigan va unga amal qiladigan bo'lishlarini talab qiladi.

Instruktlarni asosan to'rt guruxga bo'lib qarash mumkin: 1) kirish instruktaji; 2) ish joyidagi instruktaji; 3) vaqti-vaqti bilan o'tkaziladigan instruktaji va 4) rejadani tashqari instruktaji (GOST 12.004-74 (MXSS)).

Kirish instruktaji. Ishga yangi kirayotganlar uchun o'tkaziladi. Bu instruktajning asosiy maqsadi – ishga kirayotganlarning mehnatini muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi to'g'risida ma'lumot berish hisoblanadi. Kirish instruktaji yaxshi jihozlangan va ko'rgazmali qurollar o'rnatilgan mehnatni muhofaza qilish kabinetida, xavfsizlik texnikasi injeneri tomonidan o'tkaziladi.

Kirish instruktaji vaqtida ishga kirayotgan ishchi quyidagi holatlar bilan tanishtirilishi shart: O'zbekiston Respublikasida mehnatni muhofaza qilish qonuniyatlari asoslari, o'quv yurtining ichki tartib qoidalari, xavfsizlik texnikasining umumiy talablari, ish joyini tashkil qilish, ishchiga topshirilgan mashina va mexanizmlarni saromjon va ozoda saqlash qoidalari, baxtsiz hodisalarni oldini olish qoidalarini tushuntirish bunda asosiy diqqat e'tiborni har xil erituvchilar, kislotalar, yengil alanganuvchi suyuqliklar, siqilgan havo, elektr toki xavfi mavjud bo'lgan vaziyatlarga qaratish kerak.

Mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va o'quv jarayonida qoida, norma va instruksiylarining buzilishi natijasida vujudga kelgan baxtsiz hodisalar haqida ma'lumotlar berilishi kerak. Baxtsiz hodisa ro'y berganda o'zini qanday tutish haqida tushuncha beriladi, alkogolli ichimliklar baxtsiz hodisaga olib

kelishi haqida aytib o'tilishi shart. Kiyim bosh, maxsus oyoq kiyimi va shaxsiy muhofaza vositalaridan foydalanish qoidalari, sanitar-gigiyena sharoitlariga e'tibor berish, sanitar maishiy xonalardan foydalanish tartibi, baxtsiz hodisa ro'y berganda, baxtsiz hodisaga uchragan kishiga vrach kelgunga qadar yordam ko'rsatish usullari haqida ma'lumot beriladi.

Ish joyidagi instruktaji. Ish joyidagi instruktajda qo'yidagilar tushuntirilishi kerak: ishchining doimiy ishlash joyi, o'kituvchining doimiy ishlashi zarur bo'lgan axborot texnologiyalarning xususiyati ularning vazifasi va ulardan foydalanish qoidalari. Ishga tayyorlanish qoidalari, elektron vositalarning sozlanganligini tekshirish, yurgizish o'chirish asboblarning ishlashi, yerga ulanganligi, yordamchi va asosiy qurollarning mavjudligi. Shaxsiy muhofaza aslahalarining vazifalari va ulardan foydalanish qoidalariga qo'yiladigan talablar.

Instruktaj o'tkazayotganda avvalo odatdagi ish sharoitida ishchi o'zini qanday tutishi kerakligi haqida ma'lumot beriladi. Masalan avariya, yong'in va boshqa hollarda o'kituvchi o'zini qanday tutishi, tez harakat qilishi muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun mana shunday holatlarda qanday harakat qilish kerakligi haqida ham ma'lumot berilishi kerak.

Ish joyidagi instruktajni texnik havfsizlik buyicha hodim o'tkazadi.

Rejadan tashqari instruktaji. Bu instruktaj texnologik jarayonning o'zgarishi, yangi elektron namoyish etish vositalari multimediyalardan foydalanish natijasida ish sharoitining o'zgarishi sababli foydalanuvchilarning xavfsizligi saqlash uchun bilimlari yetishmasligi sezilganda o'tkazilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jamiyatning taraqqiyot darajasi, davrimizning axborot asriga aylanishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarni yetuk, vaziyatni tezda baholaydigan, har qanday holatda ham to'g'ri va oqilona qaror qabul qila oladigan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash uchun faqatgina an'anaviy uslublarga tayanib dars o'tish yetarli emas.

Bizga ma'lumki, respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish va bu sohadagi islohotlarni yanada guruhlashtirish bilim olishga, iqtisodiy sir-asrorlarini o'rganishga bo'lgan harakatini, fanni chuqur o'rganishga bo'lgan talabalarni ham kuchaytiradi. Bu esa o'z navbatida, iqtisodiy qonunlarni yaxshi biladigan, turli vaziyatlarni taqqoslash, iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitida samarali xo'jalik yuritish uchun muqobil variantalarni to'g'ri tiklash va qaror qabul qilish malakasiga ega bo'lgan iqtisodchilar tayyorlashga talab ortadi. Bunda esa kasb-hunar kollejlarida tahsil olayotgan bo'lajak mutaxassislarni kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish, ularda o'zi tanlagan mutaxassisligi bo'yicha mustahkam bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishidan ko'rinib turibdiki, tanlangan mavzuning qanchalik dolzarbligini hamda ushbu bitiruv malakaviy ishi nafaqat nazariy, balki muhim amaliy ahamiyatga egadir. Kasb hunar kollejlarida iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Men ushbu bitiruv malakaviy ishimda ya'ni «Iqtisodiy fanlarni o'tishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning dolzarb muammolari » mavzusini yoritishga va bu sohadagi mavjud muammolarni bartaraf qilish yo'llari va choralari ko'rsatib berildi. Kuzatishlarimiz va amaliy tajribalarimiz asosida quyidagi xulasalarga keldik:

-iqtisodiy ta'limning maqsadi va vazifalari shundan iboratki, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida iqtisodiy tafakkurni va tejamkorlikka tarbiyalashdan iboratdir;

-iqtisodiy ta'lim-tarbiyani shakllantirishni birinchi galda yoshlarda iqtisodiy fikrlash, iqtisodiy tushunchalar, iqtisodiy xis-tuyg'ularni oiliy va o'rta maxsus o'quv dargohlarida amalgam oshirish maqsadga muvofiqdir;

-kasb-hunar kollejlari iqtisodiy ta'limni amalgam oshirishga quyidagi metodlardan foydalanish mumkin: iqtisodiy ongni shakllantiruvchi metodlar (suxbat, maruza, nasihat), yangilikka bo'lgan intilishni rag'batlantirish;

-Markaziy Osiyo mutafakkirlarining mehnatsevarlik, tadbirkorlik, iqtisodiy qarashlari yoshlarimiz iqtisodiy ta'lim-tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu boy manaviy va ijtimoiy-iqtisodiy merosni e'zozlab qarashimiz;

- o'rta maxsus ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni o'quv tarbiya jarayonida tatbiq etish yo'lida amalga oshirilgan tadqiqot natijalarini yaxlit holda tatbiq etib, ularni iqtisodchi-pedagoglar o'rtasida ommalashtirish katta ahamiyatga molikdir.

Yuqoridagi xulasalarga asoslanib, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida iqtisodiy fanlarni o'tishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning dolzarb muammolarini yechishda quyidagilarni tavsiya qilamiz:

1. Markaziy Osiyo mutafakkirlari asarlarida iqtisodiy ta'limning mohiyati va hozirgi kundagi ahamiyatini ko'rsatib berish;
2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodchi kadrlarni tayyorlashning zaruriyatini aniqlash.
3. Innovatsion texnologiyalarning iqtisodiy ta'lim tarbiya jarayonidagi ahamiyatini ochib berish.
4. O'quv jarayonini integriyalashda iqtisodiy ta'lim tarbiyaning o'rnini ko'rsatib berish.
5. Ta'lim muassasalarining faoliyat yo'nalishlariga va xususiyatlariga muvofiq ravishda ularning faoliyatiga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish mexanizmini ishlab chiqish.
6. Bo'lajak iqtisodchilarning mutahassislik bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga doir elektron darsliklar yaratish, axborat texnologiyalaridan foydalanishni keng yo'lga qo'yish.

7. Iqtisodiyotga yo'naltirilgan ta'lim muassasalarida mutahassislik hususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga oid nazariy, amaliy va metodik tavsiyanomalar ishlab chiqish.

Shunday qilib, bizning tavsiyalarimiz, bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodchi mutahassislar tayyorlashni tartibga solishga nisbatan yangicha yondashuvlarning ishlab chiqilishini talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kasb-hunar kollej talabalarining iqtisodiy fanlarni o'tishda innavatsion texnologiyalardan foydalanishning o'rni va ahamiyati mavjudligi, ammo ushbu muammoning ancha qismi bajarilmaganligi tufayli bajarilgan ushbu bitiruv malakaviy ish nafaqat nazariy, balki muhim amaliy ahamiyatga ega. Agar bizning nazariy va amaliy ishlanmalarimiz o'quv jarayonida qo'llanilsa, o'ylaymizki kasb hunar kollejlari talabalarining kasbiy ko'nikmalarining rivojlanishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishda, ularning intellektual salohiyatini oshirishda, o'quv jarayonlarining takomillashuvida zamonaviy usullarni qo'llashda aniq ko'nikma hosil bo'lishda qo'l kelishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari Prezident farmonlari va qarorlari, boshqa huquqiy hujjatlar.

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2005.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. –T. "O'zbekiston" 1997 yil 29 avgust.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami. T.: «Sharq», 2001.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonun. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami.
- 1.5. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami. T.: «Sharq», 2001.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.

- 2.1. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari». T.: «O'zbekiston», 1998.
- 2.2. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda». Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n to'rtinchi sessiyasidagi ma'ruzasi. 1999 yil 14 aprel. T.: O'zbekiston.
- 2.3. Karimov I.A. «Barkamol avlod orzusi». T.: «Sharq», 1999.
- 2.4. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish xalqimiz uchun farovon turmush sharoitini yaratish – asosiy vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2006 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2007 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi Majlisidagi ma'ruzasi. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2007 yil 13 fevral.
- 2.5. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot provard maqsadimiz. –T.: O'zbekiston .2000yil.
- 2.6. Karimov I.A. "Yuksak manaviyat yengilmas kuch" –T.: Manaviyat, 2008.

III. Asosiy adabiyotlar.

- 3.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqorolik jamiyatini barpo etish- ustuvor maqsadimizdir" hamda "Asosiy vazifamiz- Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" nomli maruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. –T.: Iqtisodiyot.- 2010.-340bet.
- 3.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari" asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma: Tuzuvchilar: B.Y. Xodiyev, A.SH. Bekmurodov, U.B.G'afurov, B.K.To'xliyev.-T.: TDIU, 2009.- 120-bet.
- 3.3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat, T.: 2009.
- 3.4. Mavlonova A., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika T.: «O'qituvchi», 2011.
- 3.4. Podlasiy I.P. Pedagogika. Uchebnik. M.: Vishe obrazovaniya. 2009.
- 3.5. Sayidmurodov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. T.: «Moliya», 2008.
- 3.6. Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: «O'qituvchi», 2009.
- 3.7. Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: «Sharq». 2010.
- 3.8. Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan masala va mashqlar. 1 va 2 qism. T.: «Iqtisod-moliya». 2007.
- 3.9. Farberman V.A., Musina R.G., Jumaboyeva F.R. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari.
- 3.10. Shodmonov SH.SH. Alimov R.X., Jo'rayev T.T. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Moliya" 2007.
- 3.11. Yo'ldoshev J, Xasanov S. Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma -T.: "Iqtisod-moliya", 2009. -300 bet.
- 3.12. Omonov X.T., Xo'jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik.-T.: Iqtisodiyot moliya. 2009. 97-bet.
- 3.13. Hakimova M.F., Xujayev N. Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma

-T.: “FAN VA TEXNOLOGIYA”, 2008. – 138 bet.

3.14. Nazizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. -T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. 2007. -160 bet.

3.15. Asqarova.O'. “Pedagogika” - Toshkent : “Fan” 2008 yil 58 bet.

3.16. Azizxodjayeva N.N. Osnovnie tendensii razvitiya visshego pedagogicheskogo obrazovaniya v O'zbekistane /Pod red. V.A.Slastenina. - T.: Fan. 2000. –143 s.

3.17. Ziyomammedov. B.”Pedagogik texnologiya” Toshkent :”Turon-Iqbol” 2006 yil 88 bet.

3.18. Iskandarov E.A., Suyunov O.J. “Pedagogik texnologiyalar” o'quv qo'llanma Samarqand 2012.

3.19. Suyunov O. J. ”Yangi pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” o'quv uslubiy qo'llanma Samarqand-2011.

3.20. Suyunov O. J. “Pedagogik texnologiyalar” Leksiyalar kursi Samarqand-2010.

VI. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar.

4.1. Iqtisodiyot va ta'lim. Jurnal. 2010. 1-3 sonlar.

4.2. Xalq ta'limi. Jurnal. 2009-2010 y. 2-5 sonlar.

4.3. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining pedagog va muhandis pedagog kadrlar bilan taminlashning 2010 yilgacha bo'lgan statistikasi. Kasb mahorati axboratnomasi. –T.: 2009.

4.4. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009-2010 yildagi malumotlari.

V. Internet saytlari

5.1. [www.bilimdon](http://www.bilimdon.uz) uz. –O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining veb sayti.

5.2. www.de.uz –masofaviy ta'lim tizimiga bag'ishlangan veb sayt.

5.3. www.newhorizons.org. –Talimning yangi ufqlari.

5.4. www.pedagogika.ru veb sayti.


5.5. www.ziyo.net.uz sayti.

5.6. www.edu.uz


ILOVALAR:

1-ilova

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA MA'RUZA MATNINI TAYYORLASHNING TAXMINIY TUZILMASI



Faol o'qitish metodlari



FSMU jadvali

Ne'matlar narxi tushganda byudjet chizig'ini siljitish zarurmi?

F (Fikringizni bayon eting).
S (Fikringiz bayoniga biror sabab ko'rsating).
M (Ko'rsatilgan sababga tushuntiruvchi misol keltiring).
U (Fikringizni umumlashtiring).

*T-sxema**Personalni boshqarish uslublari*

<i>O'zgarishlar</i>	<i>Byudjet chizig'i o'ngga siljiydi</i>	<i>Byudjet chizig'i chapga siljiydi</i>
<i>Tovarlar narxi pasayganda</i>		
<i>Tovarlar narxi ko'tarilganda</i>		
<i>Iste'molchining daromadi oshganda</i>		

Blits-o'yin. «Men kompyuter dasturchisi»

bahosiGuruh	Guruh xatosi	javobTo'g'ri	xato Yakka	baho Yakka	chetla-shishishidanGuruh	Harakatlar mazmuni
		5		5		Internet Explorer dasturini ishga tushirish


		7		7		Pochta ochilganini tekshirib ko'rish
		6		6		Internet kartadagi login va parolni yozish
		9		9		Qaysi saytdan elektron pochta ochishni aniqlash
		8		8		Berilgan kataklarni to'ldirib chiqish va yakuniy tugmani bosish
		10		10		Sayt adresini yozish
		2		2		Kompyuterni yoqish
		4		4		«Pusk» tugmasidan kirish
		1		1		Modemni yoqish
		3		3		Registratsiya tugmasini bosish

5-ilova

«Zig-zag» texnologiyasi


O'zaro o'qitish yagona tamoyilga asoslangandir: o'quv guruhi kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir guruh a'zosi o'rganilayotgan mavzuning ma'lum sohasi bo'yicha ekspert bo'ladi va boshqalarga o'rgatadi.

Har bir guruhning asosiy maqsadi: har bir talaba mavzuni to'liq o'zlashtirishi kerak. ⁴



INAMOV I. "Iqtisodiy tarbiya nazariyasi" fanini bo'yicha ta'lim texnologiyasi.

"Iqtisodiy ta'limdagi o'qitish texnologiyasi» seriyasidan. -T.: TDIU, 2006. 135 b. 92 bet



6-ilova

Insert texnologiyasi

Insert – bu o‘quv jarayonida o‘z anglashini faol kuzatish uchun talabalarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir, chunki shunday hollar borki, odam matnni oxirigacha o‘qib, u yerda nima yozilganligini eslab qolmasligi mumkin. Bu esa nima o‘qiyotganini tushunmay, o‘qish jarayonida faol bo‘lishga qatnashmaydigan hollarning misolidir.

Insert – bu matn bilan ishlanganda faollikni qo‘llab– quvvatlash uchun kuchli vositadir.

Talaba matn bilan ishlayotganda bir qator belgilarni qo‘yib boradi ular esa quyidagi ma’nolarni bildiradi:

V – bilganlarimni tasdiqlaydi

+ - yangi axborot

— - bilganlarimga zid keladi

? – meni o‘ylantirib qo‘ydi.

**Matnni Insert usulida o‘rganganda quyidagi jadvaldan
foydalanish mumkin.**

“HA”	“_”	“+”	“?”
“Ha” o‘qiganlaringiz dan aniq bilgan yoki bilaman deb o‘ylagan ma’lumot.	“Manfiy” o‘qiganlarin giz, bilganlarin gizga qarama- qarshi ma’lumot.	“Musbat” o‘qiganlarin giz orasida siz uchun yangi bo‘lgan ma’lumot	“Savol” o‘qiganlaringiz dan siz uchun tushunarli bo‘lmagan yoki shu haqida ko‘proq narsa bilishni istagan ma’lumot.

Insert usulida ishlash qoidalari.

1.Mavzuni o‘qing va quyidagi tizim asosida belgilab chiqing.:

V- avvalgi tasavvurlariga mos.

- (minus)- mening tasavvurlarimga mos kelmadi.


+ (plyus) – men uchun bu yangi axborot.

? – mazmuni men uchun tushunarsiz.


Natijani quyidagi jadvalga tushiring

Mavzu savollari V-+?123456

«Venna» diagrammasi




«Venna» diagrammasi bilan ishlash ketma-ketligi.



B/B/B texnologiyasi

B/B/B jadvali bilan ishlash jarayonining ketma-ketligi



B/B/B - texnikasini qo'llash qoidasi

1. Insert texnikasini qo'llab matnni o'qib chiqing.
2. Olingan natijani yakka holda sistemali ravishda jadvalda belgilab chiqing.⁵


B/B/B jadvali

№	Mavzu savollari	Bilaman	Bilishni hoxlayman	Bilib oldim
1	2	3	4	5
1				
2				
3				
4				

9-ilova

Pinbord texnologiyasi

⁵ Sh. Shodmonova. N. Tilabova. «Tarbiyaviy ishlar uslubiyati.» kursi bo'yicha tarbiya texnologiyasi: Uslubiy qo'llanma / «Iqtisodiy tarbiyadagi o'qitish texnologiyasi» seriyasidan. -T.: TDIU, 2006 – 220. 112 bet.



10-ilova

Ta'lim texnologiyalari bo'yicha metodlar tizimi



Axborotni eslab qolish ko'rsatkichlari

